



UDK: 86:324 (577.2)

Saodat ATABEKOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi, (PhD) B.SH. Irzayev taqrizi asosida

RESEARCH PROCESSES IN THE STUDY AND REPAIR OF MONUMENTS IN UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotation

In this article tasks were analyzed which carried out by established organizations pertaining to historic-cultural objects created in 20th century in Uzbekistan. Works connected with finding new cultural monuments, registering and repairing them were mentioned evolutionally. Complex restoring of historical city centers, during their formation as a museum city, not only restoring of several buildings, but also all traditional-national dwellings were analyzed comprehensively.

Key words: Historic-cultural heritages, conservation, restoring, relics, converting into museum, architectural style, conforming of relics.

ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ИЗУЧЕНИИ И РЕМОНТЕ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В статье рассматриваются осуществлённые работы в деятельности организаций по объектам историко-культурного наследия созданных в Узбекистане в начало XX в. Выявление культурных объектов, учёт и реставрационные работы освещаются в последовательном порядке. Тщательно проанализированы комплексные реставрационные работы в центрах исторических городов, также процесс музеефикации не только отдельных зданий, но и восстановление окружающих построек национально-традиционного стиля.

Ключевые слова: Объекты историко-культурного наследия, консервация, реставрация, памятники, музейфикация, архитектурная развязка, приспособление памятников.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTONDA YODGORLIKLARNING O‘RGANILISHI VA TA‘MIRLASHDAGI TADQIQOT JARAYONLARI

Аннотация

Ushbu maqolada XX asr boshlarida O‘zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlari bo‘yicha tuzilgan tashkilotlar faoliyatida amalga oshirilgan ishlar o‘rganilgan. Madaniyat obidalarini topish, hisobga olish va restavratsiya qilish bo‘yicha ishlar tadrijiy asosda keltirib o‘tilgan. Tarixiy shaharlar markazlarini kompleks restavratsiya qilish, muzeylashtirish jarayonida nafaqat alohida binolarni, balki ularni o‘rab turgan milliy-an‘anaviy uslubdagi qurilishlarni tiklash ishlari atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy-madaniy meros obyektlari, konservatsiya, restavratsiya, yodgorliklar, muzeylashtirish, me‘moriy yechim, yodgorliklarni moslashtirish.

Kirish. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash – insoniyat madaniy merosini saqlash va muhofaza qilish yo‘lidagi xalqaro, davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimida muhim o‘rin egallaydi. Tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, adabiyot, tasviriy va amaliy san‘at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan majmualar ilmiy tadqiqot obyektlari sifatida muhofaza etiladi.

O‘zbek xalqi iste‘dodi mahsuli bo‘lgan tarixiy me‘moriy yodgorliklar 1917-yildan boshlab davlat muhofazasiga olindi. Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 10-oktyabrdagi dekreti bilan qadimiy yodgorliklarni saqlash Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi Bosh muzey ixtiyoriga topshirildi. Uning ijozatisiz yodgorliklarni buzish, ulardan turli maqsadlarda foydalanish man etildi [1].

1921-yilda muzey ishlari, qadimiy me‘moriy obidalarini, tabiat va san‘at yodgorliklarini saqlash bo‘yicha Turkiston komiteti (Turkkomstaris) tuzildi. Tarixiy-madaniy obidalarini saqlash va ta‘mirlash ishlariga katta qiziqish va ilmiy yondoshuv asosida qaraldi. yevropadan farqli o‘laroq, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va boshqa shaharlarda XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida barpo etilgan masjid, madrasa, karvonsaroylarni qurgan me‘mor IX-XII yoki XIV-XIX asrlarda qurilgan shunday imoratlarini

qiynalmasdan ta‘mirlay olardi. Chunki ularning qurilishi umumiy me‘moriy va badiiy tamoyillarga asoslangan edi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shu-yillardan boshlab V. T. Shuxov, V. L. Vyatkin, B. G.Zasipkin, N. M. Bachinskiy, M. Y. Masson, M. Saidjonov, V. A. Shishkin kabi taniqli olimlar, A. Boqiyev, Sh. Murodov, A. Boltayev, Q. Jalilov, Sh. G‘ofurov kabi taniqli xalq ustalari noyob obidalarini ro‘yxatga olishda, ta‘mirlash va saqlashda jonbozlik ko‘rsatdilar. Bundan tashqari M. S Andreyev, V. V Bartol‘d. D. I Nechkin, M. F Mauer, Ya. G‘.G‘ulomov, G. A Pugachenkova, V. L Voronina, L. I Rempel, P. Sh Zohidov, V. A Nil’sen kabi tadqiqotchilar ham tarixiy yodgorliklarga ikkinchi umr bag‘ishlash va ularning me‘moriy qiymatini tadqiq qilish, ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish borasida astoydil izlandilar [3].

XX asrning 20-yillaridan boshlab sharoit keskin o‘zgardi. “Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” shiori ostida chekka o‘lkalar xalqlari madaniyati “yangilandi”[2]. Yangicha san‘at yaratish niqobi ostida olib borilgan ishlar natijasida asrlar davomida an‘analarni asrab-avaylab kelgan usta me‘morlar sulolasi yo‘qola boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1932-yilda muzey ishlari, qadimiy me‘moriy obidalarini, tabiat va san‘at yodgorliklarini saqlash O‘rta Osiyo tashkiloti, 1933-yilda Yodgorliklarni

muhofaza qilish komiteti tuzildi. Yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi me'moriy uslublarni to'laqonli tadqiq etish va yuksak darajadagi ta'mirlash ishlarini bajarish imkoniyatini bermas edi [4]. Shuning uchun ham tashkilotning asosiy vazifasi kichik ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yoki binoning buzilib borayotgan qismlarini qismlarini saqlab qolish bilan keyingi zararlarining oldini olish edi. Natijada bugungi avlod oldida ajdodlar merosini tiklash uchun san'at sirlarini maxsus o'rganish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Ushbu murakkab davrda ilg'or rus ziyolilaridan iborat bir guruh shaxslar Turkiston o'lkasining boy me'moriy merosini saqlash bo'yicha XIX asrning oxirlarida boshlangan ishlarini davom ettiradilar. Samarqand obidalarining sobiq saqlovchisi V. L. Vyatkin, muhandislar M. F. Mauer va B. N. Kastalskiy 1918-yili shaxsiy tashabbuslari bilan Samarqanddagi egilib qolgan Ulug'bek minorasini asrab-avaylash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha komissiyani tashkil etdilar. 1919-yili viloyat xalq ta'limi komissiyasi huzurida musavvir O. Tatevosyan raisligidagi komissiya tuzilib, u obidalarining texnik holatini o'rganish va muhofaza qilish borasida qator amaliy tadbirlarni amalga oshirdi. Komissiya Registon maydonini bosh ko'chadan to'sib qo'yib, ba'zi joylarda obidalariga tutashib ketgan barcha do'konlarni olib tashlash to'g'risida buyruq chiqarilishiga erishdi. Komissiyaning ushbu ilk aksiyasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Tahlil va natijalar. Turkiston Respublikasidagi madaniy obidalarini muhofaza qilish bo'yicha to'laqonli davlat tizimi 1920-yil 30-yanvarda RSFSR bosh arxivi vakili D.I.Nechkin tashabbusi bilan tuzildi. Shu vaqtning o'zida Turkiston respublikasi arxiv ishi markaziy boshqarmasi huzurida Ko'hna va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish komissiyasi ham tashkil etildi. Turkiston respublikasi Xalq komissarlar kengashining dekretiga binoan 1921-yil 23-mayda ushbu komissiya mustaqil davlat organi – Muzeylar hamda ko'hna, san'at va tabiat obidalarini muhofaza qilish ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasiga (Turkomstaris) aylantirildi. Unga D. I. Nechkin rahbar etib tayinlandi. O'rta Osiyo me'morchiligi obidalarining restavratsiyasi bilan bog'liq barcha ilmiy masalalar D. S. Markov rahbarligidagi maxsus komissiya tomonidan, 1923-yildan boshlab esa I. V. Rilskiy rahbarligida D. P. Suxov, N. B. Baklanov, N. R. Levinson, B. N. Zasiipkin, B. P. Denikelar ishtirokida ishlab chiqilgan [3].

1920-yil may oyi oxirida Turkkommissiya taklifiga binoan RSFRS VSIK va SNK tomonidan maxsus Samarqand o'tmish va san'at obidalarini muhofaza qilish komissiyasi (Samkomstaris) tuzilib, u Turkomstaris tarkibiga viloyat bo'limi sifatida kirdi. Samkomstarisda texnik-qurilish, badiiy va yodgorliklarni arxeologik tadqiq etish bo'yicha uchta seksiya bor edi. Komissiya raisi etib taniqli o'lkashunos Vasiliy Lavrent'yevich Vyatkin saylandi. Qurilish seksiyasiga harbiy muhandis Boris Nikolayevich Kastal'skiy, arxeologik seksiyaga esa Mixail Yevgenyevich Masson rahbar bo'ldi. Eng katta tarkibga ega badiiy seksiyani esa Moskvadan kelgan Umumrossiya o'tmish va san'at obidalarini muhofaza qilish kollegiyasining a'zosi, musavvir D. K. Stepanov rahbar bo'ldi [5]. Unga, shuningdek, byudjet-xo'jalik masalalari bilan shug'ullanish ham topshirildi. Badiiy seksiyaning amaldagi rahbari toshkentlik taniqli rassom Ivan Semenovich Kazanov tayinlandi.

Turkomstarisning apparati to'rtta seksiyaga bo'lindi: muzeylar seksiyasi, o'tmish va san'at obidalarini restavratsiyalash va muhofaza qilish, arxeologik seksiya va tabiat yodgorliklarini muhofazalash seksiyasi. Hukumat qarorlari bilan O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa rayonlaridagi 64 obida, ansambl' va shahar vayronalari, Turkmanistonda 7 ta, Qirg'izistonda 7 ta, Qozog'istonda 5 ta yodgorliklar davlat hisobiga olindi.

Arxeologik jihatdan eng muhim o'tmish va san'at namunalarini, birinchi navbatda, me'morchilik obidalarini davlat hisobiga olish qo'mitaning bosh maqsadi edi [5]. "Sredazkomstarisning asosiy vazifasi yodgorliklarni restavratsiya qilish (qadimgi shaklini moddiy tiklash) emas, chunki bizning restavratsiya ishlarini amalga oshirishga tayyor emasligimizni hisobga olgan holda (restavratsiya sohasida yetarli miqdordagi kadrlar, ilmiy xodimlarning yo'qligi, u yoki bu obidani restavratsiya qilish uchun zarur bo'lgan ko'plab elementlarning mavjud emasligi) bu haqida gap-so'z bo'lishi mumkin emas, buning ustiga hatto kichik restavratsiya ham obidaning me'moriy ahamiyati pasayishiga olib keladi. Shu sababli Sredazkomstaris o'tmish va san'at namunalarini muhofazalashga nisbatan ikki xil nuqtai nazardan qaraydi: obidaning zaruriy ta'mirlanishini amalga oshirish, uni buzilib ketishdan asrab qolish"[6]. Sredazkomstaris ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishi D. I. Nechkin tomonidan quyidagicha ifodalab berilgan: "1 – qadimgi suv inshootlariga oid quirmalarni arxeologik o'rganish; 2 – mayolikaning qadimgi namunalarini ishlab chiqarish masalasini hal qilish maqsadida keramik tajribalarni amalga oshirish; 3 – arxeologik qazilma ishlari". So'ng u yana bir muhim tafsilotni ta'kidlaydi: "o'z davrining eng xarakterli moddiy obidalarini xronologik tartibda monografik tasvirlash va uni al'bom ko'rinishida chop etish"[6].

Sredazkomstaris tadqiqotlar bilan faqat yetarli bilimga ega mutaxassislar shug'ullanishi uchun harakat qildi. Turkiston Respublikasi SIK va SNKning 1923-yil 7-maydagi qarorida quyidagilar belgilab qo'yildi: "Hisobga olingan obidalarining muhofazasi, ta'miri va restavratsiyasi faqatgina Qo'mita yoki uning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Monumental me'morchilikning yangi inshootlarini qurish va tarixiy obidalarini kapital ta'mirdan chiqarish faqatgina Qo'mita ruxsati bilan amalga oshiriladi. Qo'mita tomonidan hisobga qo'yilgan monumental me'morchilik obidalariga tutashgan barcha joylar, shuningdek, tabiiy chegaralar, shaharlar qoldiqlari, qal'a, minora va alohida binolar devorlari qurilish yoki joylardagi boshqa zaruriyatlar uchun ishlatilishi mumkin emas". Mazmunan yaxshi ushbu qonunlar mahalliy partiya va sovet hokimiyatlari tomonidan bir necha marotaba buzilgani bu yerlardagi tarixiy shaharlarning madaniy ahamiyat yo'qolishiga, qadimiy shahar qurilishi arxitekturasi va mayron bo'lishiga olib keldi. 20-30-yillar siyosiy o'zgarishlarning inqilobiy zavq-shavqi hukm surgan davrlar bo'lib, bu yangi va eski shahar o'rtasidagi chegaralarning yo'q bo'lishida namoyon bo'ldi[8]. Ushbu radikal g'oyalari O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va boshqa ko'hna shaharlariga tiklab bo'lmas zarar yetkadi.

Qo'mitada mahalliy mutaxassislar rossiyalik taniqli olimlar bilan yaqin hamkorlik olib bordilar. Samkomstaris huzurida taniqli xalq ustalari – qadimgi qurilishi san'atini mukammal bilgan g'isht teruvchilar, yog'och va gipsga o'yima beruvchilar, kulollar ishtirokida ishlab chiqarish ustaxonalari tashkil etildi. Ularning orasida Abduqodir Boqiyev (1935-yil vafot etgan), G'ofurov (1884-1956-yy.), usta Shamsuddin va boshqalar bor edi.

1920-yili Buxoro xalq respublikasi tashkil etilishidan biroz o'tib, Turkiston Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi tashabbusiga ko'ra Buxoro inqilobiy qo'mitasiga arxiv hujjatlarini, qo'lyozmalarni, o'tmish va san'at namunalarini muhofaza qilishga yordam berish maqsadida taniqli sharqshunos olim V.V. Bartold rahbarligidagi maxsus Komissiya tashkil etildi. Uning tarkibiga V. L. Vyatkin va Toshkent xalq kutubxonasi direktori Y.K. Betgenr ham kirdi. Harbiy ekspeditsiya guruhi qo'mondonligi V. L. Vyatkinga Buxorodagi arxeologik obidalarining hisobini olib borishni topshirdi [7]. Komissiya Buxoro respublikasiga Rossiya tomonidan 1918-yil 10-oktyabrdagi qonuni va Turkiston

respublikasi yodgorliklarni saqlash qo'mitasi 1920-yil 30-yanvardagi dekretiga tayangan holda ko'hna yodgorliklar muhofazasini tashkillashtirishga ko'maklashdi.

O'rta Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishi o'tkazilgan so'ng Turkomstarisning nomi Sredazkomstarisga o'zgartirildi. Unga obidalar muhofazasini ta'minlash, ulardan foydalanish va O'rta Osiyoning barcha respublikalari va Qozog'istonda rstavratsiyalash bo'yicha ishlar topshirildi. Samarqand O'zbekistonning poytaxiga aylandi. Shu yilning o'zida Buxoro ko'hna yodgorliklarni muhofaza qilish qo'mitasi – Buxkomstaris tuzildi. Unga rahbar sifatida Buxoro obidalarini o'rganishga katta hissa qo'shgan arxeolog Vasilii Afanyevich Shishkin rahbar etib tayinlandi. Ilk-yillarda Buxkomstaris bilan Buxoro tarixiy topografiya bo'yicha arab tilidagi ma'lumotlarni tanqidiy jihatdan o'rganishning mualliflaridan biri I. I. Umnyakov (1890-1961-yy.), arxitektorlar M. M. Loginov, N. M. Bachinskiy, mahalliy tarixchi, Buxoro obidalarining birinchi tadqiqotchisi M. Y. Saidjonovlar hamkorlik qildilar. Mahalliy qurilish ustalari – amir saroyining sobiq me'mori Ibrohim Hafizov, xalq ustalari Rahim Hayotov, Shirin Murodov, Narzullo Yodgorov, Majid Qurbonov va boshqalar Qo'mitaga katta yordam berdilar.

Samarqand va Buxoro qo'mitalaridan tashqari Sredazkomstaris Xorazmda o'z vakiliga (N. L. Sokolov) ega bo'lib, u Xiva obidalarini ilk bora batafsil tadqiq qilgan. N. L. Sokolov, shuningdek, Ko'nyo-Urganch va Muzlumxon-Suluv maqbarasi bo'yicha katta arxeologik materiallarni to'plagan.

Sredazkomstaris 1929-yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Uning o'rniga O'zbekiston ko'hna yodgorliklarni muhofaza qilish qo'mitasi (Uzkomstaris) tashkil etildi. 1932-yili Uzkomstaris respublikaning yangi poytaxti Toshkentga ko'chdi, Samarqand va Buxoroda esa uning filiallari – Samkomstaris va Buxkomstaris qoldi. Uning ilk xodimlari arxeologlar S. K. Kabanov, S. A. Sudakov, suratkash N. S. Lojkin yodgorliklarni suratga tushirib, ularni ta'mirlash ishlarini ham olib bordilar. Uzkomstarisning respublika ijroiya organi olti kishidan iborat edi. Qo'mita huzurida o'tmish va

san'at namunalarini muhofaza qilish bo'yicha kengash faoliyat yuritib, uning tarkibiga taniqla sharqshunos olimlar kirdi: arxitektor B. N. Zasiqin, akademik V. V. Bartold, Uzkomstaris raisi D. I. Nechkin, arxeologlar V. L. Vyatkin, professor A. A. Semenov, o'tmish va san'at namunalarini muhofaza qilish bo'yicha seksiya mudiri professor I. I. Umnyakov.

1937-yili Uzkomstaris tashabbusi bilan ko'hna qurilish san'ati uslublari – gumbaz terish, ganchga, yog'ochga naqsh solish, kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishga o'rgatish bo'yicha maktab-ustaxona ochildi. B. N. Zasiqin usta Shirin Murodov bilan birgalikda qadimgi davr qurilish texnikasi va ish jarayoni, geometrik naqshlarni solishning prinsiplari va usullarini ifodalangan o'quv qo'llanmasini ishlab chiqdilar. Qo'lyozma 238 sahifalik chizmalar ilova qilingan. Maktabda darslarga usta Shirin Murodov rahbarlik qilgan, keyinchalik u O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi. Mashg'ulotlarni taniqli usta-restavratyorlar – usta Usmon Umarov (g'ijduvonlik kulol), usta Shamsuddin G'afforov, usta Abdulla Boltayev, usta Nasim G'ofurov, usta Muhiddin Rahimov. Ushbu mahorat maktab bitiruvchilarining ko'pchiligi taniqli usta-restavratyorlar bo'lib yetishdilar. Ular orasida usta Ibrohim Sermuhammedov, usta Abdug'affor Haqqulov, usta Anvar Quliyev, usta Mirumar Azizov, usta Toshmuqum Qurbonovlarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'laroq aytish mumkinki, Uzkomstarisning urushdan oldingi yigirma-yillik faoliyatini o'rganar ekanmiz, ushbu davrda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish va o'zlashtirishda ilgari kuzatilmagan, lekin obyektiv qonuniyatlarga asoslangan katta yuksalish kuzatildi. Respublika aniq maqsadga yo'naltirilgan va yangi qurilishlar bilan bog'liq ekspeditsiyalar yo'nalishlari tarmog'i bilan qoplandi. Bularning barchasi arxitektura yodgorliklarini ilmiy asosda tadqiq va restavratsiya qilish ishini salmoqli tarzda rivojlantirib, O'rta Osiyo tarixiy-madaniy meros obyektlarining restavratyorlar maktabining dunyoga kelishiga ko'maklashdi.

ADABIYOTLAR

1. Пугаченкова В.А. Вклад учёных Узбекистана в изучение архитектурного наследие республики. Строительство и архитектура Узбекистана. № 7.1973.
2. Axmedov M.K. O'zbekistonda me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash muammolari.// O'zbekiston me'moriy obidalarini ta'mirlash va ulardan foydalanish muammolariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. Samarqand 2004, 16-17-b.
3. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920-1990).// АСУ, 1990, № 8.- с.34-36-b.
4. Юсупова М.А. Актуальные проблемы реставрации памятников архитектуры Узбекистана.// Международная научно практическая конференция «Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» Тезисы выступления, Самарканд, 2004, с. 33-35-b.
5. Миронов А.М. Организационная, научная и практическая деятельность Средазкомстариса (бывш. Туркомстариса) за пятилетия его существования. Сб. «Известия Средне-Азиатского Комитета», изд. Средазкомстариса. – Ташкент. 1926.
6. Нечкин Д.И. Задачи и ближайшие цели Комитета по делам музеев и охраны в Средней Азии. Сб. «Известия Средне-Азиатского Комитета», изд. Средазкомстариса.– Ташкент, 1926.
7. Умняков И.И. Охрана памятников старины и искусства и Советском Законодательстве. Сб. «Известия Средне-Азиатского комитета», Средазкомстариса. – Ташкент, 1926.
8. Крюков К.С., Ноткин И.И. Реконструкция городов и проблемы сохранения памятников архитектуры Узбекистана. – Строительство и архитектура Узбекистана, 1966, №11.



UDK: 021(09)(61)

Sharofat JIYANBEKOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sharofatjiyanbekova@gmail.com

O‘zMU professori, t.f.n Z.Saidboboyev taqrizi asosida

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI KUTUBXONASI TARIXIDAN

Аннотация

Mazkur maqolada Samarqand davlat tibbiyot universiteti kutubxona tarixi bayon qilinadi. Xususan tashkil qilingan kutubxona, unda kitob fondlarining shakllanishi, nodir kitoblarning saqlanishi, faoliyat olib borgan mashhur bibliograf va xodimlar faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarida bosmaxonaning tashkil etilishi bilan universitet ilmiy salohiyatining rivojlanishi, professor-o‘qituvchilarning va talabalarning kitobga, kitob mutolaasiga bo‘lgan munosabatlari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Kitob, kutubxona, kitobxon, bibliografiya, kutubxona katalogi, kitob fondi, nashr ishlari, shifokorlar, QR-kod, elektron kutubxona, davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi.

ИЗ ИСТОРИИ БИБЛИОТЕКИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕДИЦИНСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

Аннотация

В данной статье описывается история библиотеки Самаркандского государственного медицинского университета. Проанализированы специально организованная библиотека, формирование книжных фондов, сохранность редких книг, деятельность известных библиографов и сотрудников. Также дана информация о развитии научного потенциала вуза с созданием типографии в годы независимости, об отношении профессорско-преподавательского состава к книгам и книгочтению.

Ключевые слова: Книга, библиотека, читатель, библиография, каталог библиотеки, книжный фонд, публикации, врачи, QR-код, электронная библиотека, государственная научная медицинская библиотека.

FROM THE HISTORY OF SAMARKAND STATE MEDICAL UNIVERSITY LIBRARY

Annotation

This article describes the history of the library of Samarkand State Medical University. The specially organized library, the formation of book funds, preservation of rare books, famous bibliographers and employees' activities were analyzed. Also, information is given on the development of the scientific potential of the university with the establishment of the printing house in the years of independence, and the relationship of professors and teachers to books and book reading.

Key words: Book, library, reader, bibliography, library catalog, book fund, published works, doctors, QR-code, electronic library, state scientific medical library.

Kirish. O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur masalalarni amalga oshirish uchun kutubxonalar tarixini o‘rganish, bu bo‘yicha ilmiy xulosalar, takliflar ishlab chiqish o‘ta dolzarb va zaruratga aylanmoqda. “O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan e‘tiborga molik ishlar, xususan ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat, san‘at va adabiyot sohaslarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan” [1].

Samarqand o‘tmishdan ilm-fan va madaniyat markazi hisoblangan. Shaharda ko‘plab kutubxonalar mavjud bo‘lib, ulardan biri respublikamizda tib ilmi sohasida nufuzli ta‘lim dargohi sanalgan Samarqand davlat tibbiyot universiteti Axborot-resurs markazidir.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Axborot-resurs markazi ilm-fan rivojida muhim o‘rin tutadi. Oliy ma‘lumotli shifokorlar, yosh olimlar, doktorantlarni tayyorlash, tarbiyalash sohasida kutubxonaning xizmati beqiyosdir.

O‘tgan davrda universitet kutubxonasi ulkan rivojlanish va o‘zgarishlarni boshdan kechirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga tegishli asosiy adabiyotlarni uch davrga ajratish mumkin. Birinchisi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri (kolonial davr). Bu davrda yaratilgan adabiyotlarning ko‘pchiligi ulug‘ davlatchilik mafkurasida yaratilgan, ammo ular juda ko‘plab aniq statistik ma‘lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Ikkinchi davr, XX asrning 20-80-yillarida yozilgan, yani sovet davrida yaratilgan adabiyotlardir. Bu davrda yaratilgan adabiyotlardagi mavzular asosan sovet mafkurasida doirasida tahlil etilgan. Uchinchi davr esa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng nashr etilgan tadqiqotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni o‘rganishda tarixiy manbalar, arxiv ma‘lumotlari va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Manbalardagi ma‘lumotlarni mantiqiy jihatdan bog‘lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kutubxona 1934-yilda tashkil etilib, u 1939-yilgacha hozirgi Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-klinik shifoxonasida joylashgan va 2-3 xonadan iborat bo‘lgan. Bunga sabab talabalar turar joyi

(yotoqxonalar) va kafedralarning ko'pchiligi o'sha joyda bo'lgan.

Yangi shahar, hozirgi Amir Temur va Shohrux Mirzo ko'chalaridagi yangi binoning qurilib, ishga tushishi bilan, kutubxonaga ushbu binoning pastki qavatiga ko'chirilgan. (1939-y.)

Dastlabki bosqichlardan boshlab kutubxonaga oldidiga ko'plab vazifalar: kitob fondini shakllantirish, tizimlashtirish, kataloglarni yaratish bo'yicha katta ishlarni bajarishni maqsad qilgan edi.

Kutubxonani tashkil etish va rivojlantirish uchun gistologiya va embriologiya kafedrasini mudiri, kutubxonaning birinchi direktori professor Grigoriy Mixayilovich Semyonov ko'p mehnat qilgan. Olim O'zbekiston tarixi va madaniyatini yaxshi bilgan, u Vilkashevskiy bilan birgalikda Samarqand shahri o'lkasi haqida nashr etilgan adabiyot ro'yxatko'rsatkichini yozib qoldirgan. Ushbu ko'rsatkich mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan.

Dastlabki yillar kutubxonaga fondi (jamg'armasi) 30 ming toboq (nusxa)dan iborat bo'lgan. Keyinchalik professor G.G. Abdullayev, P.N. Karlenko, F.M. Goluba, I.P. Mishchenko, P.M. Isayev, F.I. Shevchenko, dotsentlar H.R. Farxadi, M. Asadulina, M.G. Iren, D.H. Raxmanova va boshqa olimlarning kitoblari kutubxonaga tuhfa qilinishi,

№	Yillar	Kitobxonlar soni
1	1950 y	77 ming
2	1960 y	88 ming
3	1970 y	238 ming
4	1980 y	300 ming
5	1990 y	343,3 ming
6	2000 y	260,9 ming

Kutubxonaga kitob fondi kengayishi bilan birgalikda kitobxonlarga, talabalarga xizmat ko'rsatish hajmi ham yildan-yilga oshib borgan. Jumladan, 1930-y. – 4,6 ming, 1940-y. – 23 ming, 1950-y. – 29,3 ming, 1960-y. – 80 ming, 1970-y. – 160 ming, 1980-y. – 305 ming, 2000-y. – 260,9 ming.

№	Yillar	Kitobxonlar soni
1	1930 y	200
2	1940 y	1150
3	1950 y	1160
4	1960 y	2000
5	1970 y	4000
6	1980 y	5200

Qiroatxonalar va kutubxonachilar SamDTU kutubxonasi sho'basini sifatida talabalar turar joyi va ko'pgina kafedralarda faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda 36 dan ziyod harakatdagi kutubxonaga filiallari xizmat ko'rsatgan. Kutubxonaga xodimlar tomonidan bir necha bor ko'rgazmalar, kitobxonlar anjumanlari tashkil etilgan.

Kutubxonaga tashkil etilgandan boshlab Sovet Ittifoqidagi markaziy va yirik tibbiyot oliygohlari kutubxonalari bilan yaqin aloqalar o'rnatilgan. 1-2- Moskva tib oliygohlari, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Andijon tibbiyot instituti, Toshkent farmatsevtika instituti va boshqalar shular jumlasidandir.

1934-yilda kutubxonaga faqatgina bir kishilik shtatga ega bo'lgan bo'lsa, 1970-yilda 22 kishi ishlagan. 2000-yilga kelib esa universitetda talabalarning umumiy soni kamayishi sababli kutubxonaga shtati qisqarib, 15 kishidan iborat bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin kutubxonaga qoshida yangi bo'limlar birin-ketin vujudga kelgan, jumladan bibliografik bo'lim tashkil etilgan. Ushbu bo'limni 1946-yildan 1965-yilgacha Yelena Vladimirovna Lebedova boshqargan. Y.V. Lebedova yuksak madaniyati, ishchanligi, dunyoqarashi keng ekanligi bilan hamkasblari, talabalar o'rtasida katta obro' qozongan.

bundan tashqari A.S. Pushkin nomli Samarqand viloyat kutubxonasi tibbiyot faniga oid jurnallarni Samarqand davlat tibbiyot universitetiga sovg'a qilganligi ham kutubxonaga fondini ancha boyitgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida S.M. Kirov nomidagi Leningrad harbiy tibbiyot akademiyasi Samarqandga evakuatsiya qilingani bois undan keyin ko'pgina kitoblar kutubxonaga esdalik bo'lib qoldi. Ushbu nashrlarning ko'pchiligi nodir adabiyotlar, chunki kitoblarning aksariyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nashr etilgan. Bular: F.A. Brokgauzning mashhur "Ensiklopedicheskiy slovar" (1890-1907), I.A. Efronning "Realnaya ensiklopediya meditsinskix nauk" (1891), hamda anatomiya, fiziologiya, xirurgiya, akusherlik va ginekologiya va boshqa sohalar bo'yicha kitoblar hamda doktorlik dissertatsiyalaridir. Ilmiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, N.I. Pirogov va boshqa tibbiyot fani asoschilarining asarlari ham mavjud. Shu tariqa urushgacha kutubxonaga 39 ming nusxa kitob fondi bilan boyigan (2).

SamDTUda talabalar va o'qituvchilar jamoasi ko'payishi bilan, kitoblar miqdori yildan-yilga ko'payib borgan. Xususan quyidagi jadvalda kitobxonalar sonining ortib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Kutubxonaga qoshida qiroatxonaga ham tashkil etilgan. Uning sho'balari talabalar turar joyida ham bo'lgan.

Qiroatxonaga tashrif buyurgan kitobxonlarni yillar kesimida quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1965-yildan bibliografiya bo'limi mudiri sifatida N.F. Borodatskaya faoliyat olib bordi. N.F. Borodatskaya 35 yillik bibliograf tajribasiga ega, tez orada jamoa va talabalar orasida katta hurmat qozongan. O'zining mahorati va ilmiy izlanishlari bilan universitet kutubxonasi faoliyatida ko'zga ko'rinarli iz qoldirgan. N.F. Borodatskaya universitet xodimlari tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarning bibliografik katalogini tuzgan.

Urush tugagandan keyingi 50-70- yillarda kutubxonaga ishi yanada rivojlandi. Bunda kutubxonaga fidoyilaridan Ye.V. Lebedova, L.S. Popova, N.N. Lavnikanets, E.P. Rilova, G.V. Lutfullina, A.N. Ladanova, G.S. Korobets, N.F. Borodatskaya, V.S. Leshinskiy, Z.YA. Xaybullinani eslash o'rinlidir.

Hozirgi vaqtgacha kutubxonada direktor lavozimida ishlaganlar: G.S. Semyonov (1934 – 1938-yy.), Ye.V. Lebedeva (1938-y.), N.I. Pasternak (1952 –1953-yy.), N.E. Kechko (1965 – 1972-yy.), R.B. Bayturalova (1972-y.), N.F. Borodatskaya (1973-y.), M.E. Kalantarov (1974 – 1980-yy.), B.M. Melikov (1980 – 1994-yy.), L.N. Alizoda (1994 – 2000-yy.), X.A. Fayziyeva (2000 – 2004-yy.), E.A. Abduxamitova (2004 – 2005-yy.), S.A. Balyasnikova (2005 – 2007-yy.), D.Z. Mansurova (2007 – 2018 yy.), G.I. Xudayberdiyeva (2018 – 2021-yy.) D.Z. Mansurova (2021-yildan). Ulardan G.S.

Semenov, N.I. Pasternak, N.E. Kechko, M.E. Kalantarov, B.M. Melikov va L.N. Alizoda ziyo maskanida 5 yildan ko'proq vaqt rahbarlik qilishgan⁴.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti kutubxonasi juda ko'plab olimlar yetishib chiqishida asosiy maskan bo'lib xizmat qilgan. 1960-yilgacha universitet xodimlari 12 500 dan ortiq ilmiy ish nashr ettirdi. Shundan 229 maqola birinchi o'n yillikda, 167 maqola ikkinchi o'n yillikda, 900 maqola uchinchi o'n yillikda, 1707 maqola to'rtinchi o'n yillikda, 3981 maqola beshinchi o'n yillikda, 5500 dan ko'proq maqola oltinchi o'n yillikda bosib chiqarilgan. Monografiyalar nashr etish soni ham yildan-yilga ko'payib borgan. Shu yillarda jami

№	Nashrlar	Soni
1.	Darsliklar	20 ta.
2.	Monografiyalar	33 ta.
3.	Uslubiy qo'llanmalar	149 ta
4.	O'quv-uslubiy qo'llanma	152 ta.
5.	Ilmiy maqolalar	4303 ta.
6.	Ixtirolar-patentlar	56 ta.
7.	Nomzodlik dissertatsiyalar	124 ta.
8.	Doktorlik dissertatsiyalar	32 ta.
9.	Ilmiy-tadqiqotni yorituvchi to'plamlar	24 ta

2002-yilda SamDTU kutubxonasi 7 bo'limdan iborat bo'lib, ularda 15 xodim faoliyat olib borgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi №381 sonli "Respublika aholisini axborot-kutubxonalar bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga asosan 2007-yilning yanvar oyidan boshlab kutubxonalar tuzilishi va axborot-resurs markazlarini o'zgartirish haqidagi buyruq ishlab chiqilib, kutubxonalar Axborot-resurs markazi (ARM)ga aylantirildi.

Kutubxonada 10 dan ortiq millatga mansub xodimlar faoliyat ko'rsatib, yetuk shifokorlarni tarbiyalash sohasida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishgan {7}.

Xulosa va takliflar. Samarqand davlat tibbiyot universiteti kutubxonasi viloyatimiz tarixida alohida o'ringa ega. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy maskanlardan biri sifatida yetuk shifokor va tibbiyot xodimlarini tarbiyalash sohasida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Kutubxonalar ishi tarixining shakllanishi va takomillashib borishi, universitet ilmiy salohiyatining ham yuksalishida asosiy maskan bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorijiy davlatlar oliygoxlari bilan olib borilgan xalqaro hamkorlik universitet ta'lim tizimining yanada

80 dan ortiq kitob chiqarilgan, 40 nomda darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr etilgan⁵.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, universitet o'z bosmaxonasiga ega bo'lganligi bois, SamDTU olimlari tomonidan monografiyalar, darsliklar, o'quv-uslubiy risolalar, ilmiy maqolalarning chop etilishi sezilarli darajada ortdi. Ular kutubxonalar kitob fondini ancha boyitib, ayniqsa o'zbek tilida darsliklar birin-ketin nashr etildi⁶. Bunday ilmiy o'sishni SamDTU olimlarining 1991–2000-yillarda chop etgan quyidagi bosma nashrlar va ilmiy tadqiqot natijalaridan ham ko'rishimiz mumkin:

takomillashib borishiga, tibbiyot sohasidagi yangiliklarning kirib kelishiga va aholi salomatligining yanada yaxshilanishiga xizmat qilib kelgan va hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Samarqand viloyatida kutubxonalar ishi tarixining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarida tibbiyot oliygohi kutubxonasining ham muhim o'rin egallaganligini ushbu maqolamizda yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ham isbotlaydi.

Yurtimiz aholisining sog'lom turmush tarzi va salomatligi uchun xizmat ko'rsatadigan shifokorlar, soha mutaxassislari o'z ilmiy va kasbiy salohiyatini kutubxonalaridagi bilim manbaya orqali yuksaltirganligi ahamiyatlidir. Shunday ekan, kutubxonachilar, soha xodimlari bugungi raqamli texnologiyalar asrida ham o'z ish faoliyatlarini ma'suliyat bilan bajarayotganligiga tadqiqot va izlanishlarimiz davomida yana bir bor amin bo'ldik.

Ushbu maqolani tayyorlashda o'z yordamini ayamagan ajoyib inson, viloyatimizda namunali rahbar ayollardan biri Samarqand davlat tibbiyot universiteti axborot resurs markazi direktori Mansurova Dilshoda Zokirovnaga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халкнинг иши ҳам улуг, хаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2019. – Б. 340.
2. Самаркандский государственный медицинский институт имени академика И.П.Павлова. Краткий исторический очерк (1930-1980).Т. "Медицина". УзССР. 1980. С.51.
3. Лернер П.М., Блинов В.А. Очерки. Развития науки в Самаркандском государственном медицинском институте за 50 лет. (1930-1980). Т. "Медицина". УзССР. 1980. С.22-23.
4. Академик И. Павлов П. номидаги Самарқанд давлат медицина институти 50 ёшда. УзССР. "Медицина". Т. 1980. Б.5.
5. Аслиддинов Ф., Файзиёва Х. Институтнинг илмий кутубхонаси (тарихи ходимлари). Рисола 17. Самарқанд, 2002. – Б. 26.
6. Академик И.П. Павлов номидаги халқлар дўстлиги нишонли Самарқанд давлат тиб маъҳади (1930 – 1990-йиллар). Т. "Ибн Сино". 1990. Б. 24-25.
7. Самарқанд вилоят давлат архиви фонди 1046-фонд, 2-ро'yxat, 4700-yig'ma jild, 2- varaq.
8. Ўзбекистон тиббиёт энциклопедияси. Тошкент. "Sharq", 2016.- Б.658.
9. Embriologiya (qadimgi yunoncha: ἔμβριον - embrion va -λογία logiya) — embrion (murtak, pusht) ning hosil bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risidagi fan. Odam va hayvonlar Embriologiyasi hamda o'simliklar embriologiyasi farqlanadi.
10. Gistologiya (grekcha: ἵστός [gisto]va λόγος [logiya]) odam va hayvonlar organizmining to'qimalari haqidagi fan. "Gistologiya" terminini birinchi bo'lib nemis olimi K. Mayer taklif etgan. Gistologiya to'qima va a'zolarining evolyutsiyasi, rivojlanishi (gistogenez), mikroskopik va o'ta nozik tuzilishi, kimyoviy tarkibi, vazifasi (gistofiziologiya), shuningdek, ularning tuzilishi bilan faoliyati o'rtasidagi bog'lanishni o'rganadi.
11. <https://e-library.sammu.uz/ru> ushbu saytdan foydalanildi.



Akbar ZAMONOV,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Tarix” bo‘limi mudiri, t.f.f.d., k.i.x.
E-mail: als_zamonov@mail.ru

TDPU dotsenti, t.f.d. G.Taniyeva taqrizi asosida

SOME REFLECTIONS ON THE MANAGEMENT OF SAMARKAND IN THE PERIODS OF GENERATIONS OF KUCHKUNCHIKHAN

Annotation

In this paper, the author attempted to analyse the issues related to the ownership and management of Samarkand and adjacent territories during the reign of the Sheybanids dynasty. In the research work, the specific aspects of the dynastic management in Samarkand were studied based on the local sources, written during the reign of the Sheybanids and Ashtarkhanids, diaries of the ambassadors and travellers, and modern historians.

Key words: Source, Sheybanids, dynasty, Samarkand, management, administration, property, reign, khan, throne, Sheybanikhan, Abulkhayrkhan, sultan, royal prince, capital city, zone, territory, region.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ УПРАВЛЕНИИ САМАРКАНДОМ В ПЕРИОДЫ ПОКОЛЕНИЙ КУЧКУНЧИХАНА

Аннотация

В статье анализируются вопросы владения и управления Самаркандом и прилегающими территориями в период правления династии Шайбанидов. В ходе исследования были изучены особенности династического правления в Самарканде на основе местных источников, дневников послов и туристов, а также произведений историков Нового времени, созданных во времена Шайбани и Ашратханидов.

Ключевые слова: Источник, шейбаниды, династия, Самарканд, администрация, собственность, владение, хан, правитель, престол, Шайбанихан, Кочкунчихан, султан, валиахд, столица, территория, область.

KO‘CHKUNCHIXON AVLODLARI DAVRIDA SAMARQAND BOSHQARUVIGA OID BA‘ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand va unga tutash hududlarning egaligi va boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar tahlil qilindi. Tadqiqot ishida shayboniylar, ashratxoniyalar davrida yaratilgan mahalliy manbalar, elchi va sayyohlar kundaliklari hamda zamonaviy davr tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlar asosida Samarqandda sulolaviy boshqaruvning o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Manba, shayboniylar, sulola, Samarqand, boshqaruv, mulk, hukmronlik, xon, hokim, taxt, Shayboniyxon, Kuchkunchixon, sulton, valiahd, poytaxt, hudud, viloyat.

Kirish. Samarqand Amir Temur va temuriylar davrida dunyoning eng buyuk shaharlaridan biriga aylandi. Shuning uchun ham shaharning XIV-XV asrlardagi tarixi bo‘yicha dunyoda va O‘zbekistonda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin XVI asrning so‘nggi choragidan Samarqand shahri ma‘muriy markaz sifatidagi ilgari mavqeyini yo‘qotdi. Shuningdek, bu asrda Samarqand bir sulola tomonidan boshqarilgan bo‘lsa-da, unga egalik qilish, uning boshqaruvi turli ziddiyatli voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda kechdi. Bundan tashqari, Movarounnahrda temuriylarning yuksak madaniyat yaratganligi va ulardan keyin hokimiyatni egallagan hamda temuriylarning dushmati sifatida qarab kelingan shayboniylar sulolasi davri tarixi bir oz tadqiqotlar nazaridan chetda qoldi. Garchi, bu davrga oid tarixiy manbalar yetarli bo‘lishiga qaramay, shaharning XVI asrdagi siyosiy tarixi, sulolaning shahar boshqaruvidagi o‘ziga xos yondashuvlariga yetarlicha oydinliklar kiritilmadi.

Shuningdek, Samarqand shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Movarounnahrda mavjud davlatning so‘nggi poytaxti maqomida edi. Shu jihatdan, bu davrdagi Samarqand va unga tutash hududlarning siyosiy tarixini o‘rganish dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘rta Osiyoda esa shayboniylar homiyligidagi madaniy hayot ham o‘z rivojlanish tarixini boshidan kechirdi, deyishga asoslar mavjud. Zero, Hyerman Vamberi, A.A.Semyonov,

A.Y.Yakubovskiy, L.N.Boldirev [21] singari mashhur tarixchi olimlar yozganidek, temuriylar o‘rniga kelgan shayboniylar madaniyatni yo‘q qilib tashlamadilar, balki, unga homiylik ham qildilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy, statistik, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shayboniyxon Samarqand shahriga alohida ehtimol bilan qaradi va uni o‘z davlatining poytaxti etib belgiladi. XVI asr muarrix Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, o‘g‘li Muhammad Temur sultonni o‘z merosxo‘ri etib tayinladi va “unga xon unvonini berib, Samarqandni boshqarishni unga topshirdi va bu bilan uning obro‘sini juda baland ko‘tardi” [10]. Aytish joizki, Shayboniyxon Samarqandni nafaqat poytaxt, shu bilan birga, valiahd boshqaruvidagi shaharga aylantirdi.

Shayboniylar “go‘zal Samarqand shahrini yana adolatli harakatlar va hayrli hamda e‘tiborli ishlar manbaiga aylantirdilar”[2]. Oliy hukmdor poytaxt shahardagi qurilishlarga alohida e‘tibor qaratdi [3]. Muhammad Shayboniyxonning 1510-yildagi fojiali o‘limidan so‘ng, Bobur Mirzo Eron shohi Ismoil Safaviyning ko‘magiga tayanib Movarounnahrni qo‘lga kiritdi. Lekin Boburning Eron yordamida Samarqandni egallashi, shia mazhabi vakillariga yon berishi aholining xafsalasini pir qilgan [14]. Uning 8 oylik

qisqa hukmronligidan keyin shayboniylarning unga qarshi harbiy harakatlari kuchaydi. Bu kurashda alohida faollik ko'rsatgan Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydulla sultonning siyosiy mavqeyi kuchayib bordi. Ubaydulla sulton Muhammad Shayboniyxon tomonidan boshqaruv uchun berilgan Buxoro viloyatining hukmdori Mahmud sultonning o'g'li bo'lib, 1512-yil u va Bobur o'rtasida "Buxoro yaqinida jang bo'lib o'tdi. Ubaydullaxon g'alaba qozondi" [12]. Shu tariqa, Movarounnahrning yirik viloyatlaridan biri – Buxoroda hukmronlik qilgan Ubaydulla sulton 1533-yilda oliy hukmdorlik unvoniga erishgach, garchand rasman poytaxt Samarqand sanalsa-da, davlatni Buxorodan turib boshqardi. Shayboniyxon tomonidan joriy qilingan boshqaruv an'alarining ayrimlariga barham berildi. Jumladan, Samarqand Shayboniyxonning katta o'g'li Temur sultonga berilsa-da (Ko'chkunchixon ham Samarqand berilgan, ular shaharni sheriklikda boshqargan), valiahd boshqaruvdagi shahar maqomini yo'qota bordi.

Shuni ta'kidlash joizki, XVI asr davomida Samarqand Abulxayrxonning to'rtta o'g'li avlodlari tomonidan boshqarildi. Ya'ni, 1500-1510-yillarda Shoh Budog' avlodlari (Shayboniyxon), 1512-1552- va 1556-1572-yillarda Ko'chkunchixon avlodlari, 1552-1556-yillarda Suyunchxoja avlodlari (faqat Navro'z Ahmadxon), 1578-1598-yillarda Xo'ja Muhammad sulton (*Abdullaxon shu sultonga borib taqaladi. Abulxayrxon – Xo'ja Muhammad sulton – Jonibek sulton – Iskandarxon – Abdullaxon*) Samarqandni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu jihatdan, shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Samarqand viloyati boshqaruvini xususiyatiga qarab, nisbiy ravishda, uch davrga bo'lish mumkin. *Birinchi davr*, 1500-1541-yillarda shahar Movarounnahrning markazi, shayboniylarning poytaxti bo'lgan; *ikkinchisi*, 1541-1578-yillarda Samarqand o'ziga tutash hududlar bilan mustaqil xonlik edi; *uchinchisi* esa, 1578-1598-yillarda Buxoro xonligi tarkibidagi yirik, lekin siyosiy markazlik maqomiga ega bo'lmagan viloyat sifatida mavqei hosil qildi.

Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr hududi egallangach (1504-yilga kelib), mamlakat viloyatlarini o'z sulolasining yirik namoyandalariga bo'lib berdi. Chunonchi, Turkiston Kuchkunchi sultonga (1512-1529-, *Shayboniyxonning amakisi, Abulxayrxonning 1452-yilda temuriy Robiya Sultonbegimdan tug'ilgan o'g'li*), Toshkent va Shohruxiya uning ukasi Suyunchxoja sultonga (vaf. 1525-, *Shayboniyxonning amakisi, Abulxayrxonning 1453-yilda temuriy Robiya Sultonbegimdan tug'ilgan yana bir o'g'li*), Buxoro Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonga (1454-1505), Axi va Andijon Jonibek sultonga (vaf. 1529, *Jonibek Sulton Shayboniyxonning amakivachchasi, Abulxayrxonning Xoja Muhammad Sulton ismli o'g'lining farzandi*), Samarqand Muhammad Shayboniyxonning amakivachchalari Ahmad sultonga (vaf. 1510), Hisor va unga tutash hududlar Hamza (vaf. 1511) va uning ukasi Mahdiy sultonga (vaf. 1511), Termiz Said Muhammad sultonga (vaf. 1510, *Muhammad Shayboniyxonning amakivachchalaridan biri*) berilgan [10].

Dastlabki davrda (1500-1541) Samarqand boshqaruvining asosiy xususiyati shundaki, u poytaxt sifatida xon taxtga o'tqaziladigan joy hisoblangan. Bu yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan.

Samarqand 1511-yilga qadar (Bobur tomonidan egallab olinguncha) Muhammad Shayboniyxonning to'ng'ich o'g'li Temur sulton hukmi ostida edi [10]. Muhammad Shayboniy 1510-yil Marv yaqinidagi jangda halok bo'lgach, shayboniylarda ikki yil davomida rasman oliy hukmdorlar nomiga juma namozida xutba o'qilib, ma'lum muddat davlatni boshqarib turgan. Masalan, dastlab 1511-yil Suyunchxoja Samarqandga kirib "o'zbek qabilalarining xonlar xoni sharafiga" xutba o'qitirdi va 1512-yilgacha "oliy xon" bo'lib turdi. Shayboniylar bu mintaqani Boburdan qaytarib olgach,

dastlab Ubaydullaxon o'zini "oliy xon" deb e'lon qildi. So'ng taxtni "Yaso" qonunlariga binoan suloladagi eng yoshi ulug'i bo'lgan Ko'chkunchixonga bo'shatib berdi [17]. Shunday bo'lsa-da, boshqaruv amalda Jonibek sulton va Ubaydulla sultonlar qo'lida bo'lgan. Xususan, 1512-yil shayboniy sultonlar yig'ilib, yoshi ulug' harbiy yo'lbo'shchi bo'lgan Jonibek sultonga hududlarni qayta taqsimlash vazifasi topshirilgan. Unga ko'ra, Samarqand hududi Ko'chkunchi sulton (1452-1529) va Shayboniyxonning katta o'g'li Muhammad Temurga (vaf.1514) berildi [16]. Movarounnahrning oliy hukmdori sifatida Ko'chkunchixon e'lon qilindi. Oliy hukmdorlikning Ko'chkunchixonga berilishida shayboniy sultonlar (Jonibek va Ubaydulla sulton) yosh jihatdan eng katta bo'lishdan tashqari, yana ikki jihatga ahamiyat bergan bo'lishi, ehtimol. Birinchidan, Ko'chkunchixonning ota tomondan chingiziylarga mansubligi sabab taxtga da'vo qiladigan qonuniy asosi bo'lsa, ona tomondan temuriylar sulolasining Movarounnahr hukmdorlariga ulanishi (*Ulug'bekning qizi Robiya sulton begimdan tug'ilgan*) mamlakat hukmdorligiga to'la haqliligini anglatar edi. Ikkinchidan esa, Ko'chkunchixon soddadil va davlat boshqaruviga ishtiyoqi hamda layoqati yuqori bo'lmagan shaxs bo'lgan [16]. Shu jihatdan, Jonibek sulton va Ubaydulla sultonlarning amaldagi hokimiyatiga halal bera olmasligi sultonlar uchun ayni muddao edi.

1529-yili Ko'chkunchixon vafot etgach, amaldagi hokimiyat egasi bo'lgan Ubaydullaxon (1487-1540) marhum xonning katta o'g'li Abu Saidxon (1530-1533)ni Movarounnahr hukmdori sifatida taxtga ko'taradi. U Samarqandda turgan va shu yerdan mamlakatni boshqargan. Mazkur xon davri Samarqandda ikki yildan ortiqroq vaqt hukmronlik qilgan, uning nomidan tangalar zarb etilgan [16]. Uning vafotidan keyin Buxoro hokimi Ubaydullaxon Samarqandga kelib, o'sha paytdagi yoshi eng katta shahzoda, Ko'chkunchixonning ikkinchi o'g'li Abdullaxon (vaf. 1540)ni taxtga ko'taradi [16].

Ko'chkunchixon Samarqand shahrida istiqomat qilgan bo'lsa, uning farzandlari, nabiralari, ya'ni sultonlar (shahzodalar "sulton" deb yuritilgan) Samarqand hamda uning atrof tumanlarida istiqomat qilgan. XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda bo'lgan Zayniddin Vosify 1512-1513 yilning qishida sodir bo'lgan voqealarni tasvirlay turib, bir qancha sultonlar, xususan, shayboniylar shahzodasi Abu Said sulton Samarqand shahri tashqarisidagi Konigilda qishlaganini yozadi [23].

Shayboniylarning Samarqand boshqaruvdagi ikkinchi davr (1541-1578) qisqa muddat hukmronlik qilgan Abdullaxon ibn Ko'chkunchixon (Abdullaxon I) vafotidan keyin boshlandi (1540). Ya'ni, mamlakatda qo'shlokimiyatchilik yuzaga keldi va Ubaydullaxonning o'g'li Abdulaziz (1541-1551) Buxoroda, vafot etgan xon – Abdullaxon ibn Ko'chkunchixon (1540-1541)ning ukasi Abdulatif sulton (1541-1550) Samarqandda o'z hukmronligini o'rnatib oldi. Buning asosiy sababi sundaki, Buxoroda taxtga chiqqan Abdulazizning oliy hukmdorligini Samarqand hokimi tan olmadi. Chunki, u (Abdulatifxon) ota tomondan chingiziy, ona tomondan temuriy (Ulug'bek Mirzoning qizi Robiya Sultonning nabirasi) bo'lganligi uchun o'zini Movarounnahrning haqli hukmdori hisoblar edi.

Shunday qilib, XVI asrning 50-yillaridan boshlab siyosiy kurashning yanada kuchayishi natijasida, Samarqandda Ko'chkunchixon avlodlari (1541-1578), Buxoroda Ubaydullaxon avlodlari (1541-1552), Toshkentda Suyunchxoja avlodlari (1540-1583), Karmana va Miyonqolda Jonibek sulton avlodlari (1512-1598) mustaqil ravishda hukmronlik qila boshlagan. Keyinchalik, 1557-yil Abdullaxon II tomonidan mamlakat poytaxti Buxoroning egallanishi natijasida shayboniylar davlatining markazlashuvi jarayoni qaytadan boshlandi [8].

Abdulatifxon Samarqandda to'la mustaqil ravishda hukmronlik qila boshladi. Lekin bu davrda Movarounnahrda yana ikkita mustaqil Shayboniylar davlati – Toshkent va Buxoro xonliklari mavjud edi. Abdulatifxon 1550-yil vafot etgach, marhum xonning jiyani, Abu Saidxonning katta o'g'li Sulton Said sulton taxtga chiqadi. Uning hokimiyatini mustahkamlashga ko'maklashgan Toshkent xoni Navro'z Ahmadxon (1525-1556-yillarda Toshkent xoni) 1552-yil Samarqandni egallab, uni o'z mulkiga qo'shib oladi, Ko'chkunchixon avlodlariga shafqat bilan munosabatda bo'lib, Samarqand hukmdori Sulton Said sultonga Buxoroni olib berish bahonasi bilan uni Buxoro ustiga yo'llaydi, uning ukasi Javonmardali sultonni surgun o'rnida Andijon hokimi etib jo'natadi. 1555-yil Movarounnahrda bo'lgan turk admirali Seydi Ali Raisning guvohlik berishicha, Navro'z Ahmad Samarqand va Toshkentni bitta markaz ostiga birlashtirgan hamda Buxoroni ham egallash uchun kurash olib brogan [19].

Shu tariqa, Suyunchxoja ibn Abulxayrxon avlodlari (ya'ni, Navro'z Ahmad) 1556-yil, vafot etgunga qadar Samarqand xonligi vaqtincha Toshkentga qaram bo'lib turdi. Navro'z Ahmadxon vafotidan keyin Samarqand taxtini uning o'g'li Bobo sulton egallaydi (Chunki, bu paytda Bobo sulton Samarqandda turgan edi). Oradan ko'p o'tmay, 1557-yil Qoshg'ar xoni Rashidxon yordamida Sulton Said sulton (Ko'chkunchi avlodi) ota meros mulk – Samarqandni qayta egallaydi va u bu yerda 1572-yilgacha, vafot etgunga qadar hukmronlik qiladi. Sulton Said sulton vafotidan keyin uning ukasi Javonmardalixon nomiga Samarqandda xutba o'qilib, taxtga ko'tariladi. U Toshkent hukmdorlari – Darveshxon va Bobo sultonlar (Navro'z Ahmad o'g'illari)ga qarshi kurashda Buxoroning amaldagi hukmdori Abdullaxon (1557-1598) yordamiga tayandi.

1578-yil Toshkent xoni Bobo sultonning Samarqandga xurujlari natijasida vaziyatga Abdullaxon jiddiy ravishda aralashadi. Abdullaxonning Samarqandga qilingan yurishida ikki aka-uka avlodlari – Samarqand hukmdorlari bo'lgan Ko'chkunchixon avlodlari (Jovanmardalixon va uning farzandlari) hamda Toshkent hukmdorlari bo'lgan Suyunchxoja avlodlari (Navro'z Ahmad farzandlari, xususan,

Bobo sulton) birlashadilar. Abdullaxon Samarqandni zabt etish uchun ikkita frontda urush olib borgan: birinchisi, shahar ichidan turib, uni mudofaa qilish jangini Jovanmardalixon tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchisi, Toshkent va Turkiston hukmdori Bobo sulton shahar tashqarisida Abdullaxonga qarshi chiqdi. Uch oylik shahar qamali hamda Zomin hududida Bobo sulton bilan bo'lgan yirik to'qnashuvda Abdullaxon g'alaba qozonadi va Samarqandni egallaydi [20]. Samarqand hukmdori Jovanmardalixon va uning o'g'illari qatl etiladi. Shu tariqa, 1512-yildan Ko'chkunchixon avlodlari hukmronligi ostida bo'lgan (ma'lum tanaffuslar bilan) Samarqand Abulxayrxonning boshqa bir o'g'li – Xoja Muhammad sulton avlodi bo'lmish Abdullaxon qo'lga o'tadi.

Xulosa va takliflar. Muhammad Shayboniixon Movarounnahr hududini egallagach, Samarqandga alohida e'tibor qaratdi, uni poytaxt sifatidagi mavqeini saqlab qoldi. Lekin, XVI asrning o'rtalaridan boshlab Samarqand Temur va temuriylar davridagi siyosiy mavqeini Buxoro bilan bo'lishdi. Shunga qaramay, shayboniylar o'rtasida uning boshqaruvi uchun kurash ayovsiz kechgan hududga aylandi. Buni Abulxayrxonning to'rt o'g'li (Shoh Budog', Ko'chkunchixon, Suyunchxoja, Xo'ja Muhammad sulton) avlodlari ham birin-ketin hukmronlik qilganida ham ko'rish mumkin. Shaharning poytaxt sifatida to'la o'z mavqeining yo'qolishi Abdullaxon tomonidan egallanishidan keyin sodir bo'ldi. Chunki, u Movarounnahrda shayboniylar sulolasi vakillari hukmronlik qilayotgan uchta mustaqil xonlik: Samarqand, Buxoro va Toshkent xonliklarini yagona davlatga birlashtirgan hamda bu bilan o'z poytaxti bo'lgan Buxoroning ma'muriy markaz sifatidagi nufuzini oshirgan edi.

Shunday bo'lsa-da, shayboniylar sulolasi davrida Samarqand temuriylar davrida bo'lgani kabi ilm-fan, madaniyat markazlaridan biri sifatidagi mavqeini saqlab qolgan. Muhammad Shayboniixon va uning vorislari bu yerda bir qator inshootlar qurdirgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tiklash uchun islohotlar o'tkazgan. Demak, Samarqand XVI asrda, Buxoro xonligi davrida ham muhim iqtisodiy va madaniy markaz bo'lib qolaverdi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulkadir Macit. Şeybâni hanlığı (1500-1599). İstanbul, 2015.
2. Abu Tohirxoja. Samariya. / Forschadan tarjima Abdulmo'min Sattoriy, qayta ishlangan nashri Sh.Vohidov, B.Aminovlarniki. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
3. Agzamova G. O'zbekiston shaharlari. XVI-XIX asrning o'rtalari. T.: Adabiyot uchqunlari, 2017.
4. Бартольд В.В. Мечет БибиХаным. Сочинения, Том, IV. – М.: Наука, 1966.
5. Binoiy Kamoliddin. Shayboniynoma // O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. – T.: – Fan va texnologiya, 2014.
6. Carter Findley. The Turks in world history. "Oxford University press", 2005.
7. Фазлаллах ибн Рузбехон. Михман-нама-йи Бухара / Перевод, предисловие и примечания Джалиловой Р.П. – М.: Наука, 1976.
8. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). – Т.: Фан, 2012.
9. Xasanxoja Nisoriy. Muzakiri ahhob (Do'stlar yodnomasi). / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – T.: Xalq merosi, 1989.
10. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-kitob. / Fors tilidan Mirzayev S. tarjimasi, so'z boshi va izohlar muallifi Ahmedov B. T.: Sharq, 1999.
11. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. / Fors tilidan Mirzayev S.va Hakimjonov Y.tarjimasi. Nashrga tay. Ahmedov B. 2-kitob. – T.: Sharq, 2000.
12. Xondamir G'iyosiddin. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. / Fors tilidan tarjima, so'z boshi mualliflari Hazratqulov J., Bekjonov I.. – T.: O'zbekiston, 2013.
13. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
14. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. / V.Rahmonov va Ya.Egamova tarjimasi. – T.: Sharq, 2010.
15. Muhammad Tolib. Matlabut-tolibin / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Karimiy G'va Mirkomilov E. – T.: Movarounnahr, 2016.
16. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-Bilod. Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Bekjonov I., Sangirova D. T.: "Yangi asr avlodi", 2009.
17. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. T.: Adolat, 2007.
18. Skayler Yujin. Turkiston. / Ingliz tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi Saidboboev Z.A. – T.: O'zbekiston, 2019.
19. Seydi Ali Rais. Mir'otulma'molik / Tarjima va izohlar I Zunnunovaniki., tahrir va so'z boshi S Azimjonovaniki.. – T.: Fan, 1963.

-
20. Sharofiddin Roqimiy. Tarixi tomm. / Fors tilidan tarjima Norqulov N.va H.Bobobekovlar tomonidan amalga oshirilgan. – T.: Ma'naviyat, 1998.
 21. Вамбери X. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990; Семенов А.А. К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана. Семенов А.А. Шейбани-хан и завоевание империи темуридов. Семенов А.А. Первые шейбаниды и борьба за Мавереннахр. // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. 1. – Сталинабад: АН ТаджССР, 1954; Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент, 1941; Болдирев Л.Н. Зайнидин Восифий. Сталинабад, Госиздат. 1957.
 22. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Т.: O'qituvchi, 2008.
 23. Zayniddin Vosifiy. Badoe'ul-vaqoe' / Fors tilidan Norqulov N.tarjiması. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.



UDK: 282

Abdullo QOSIM,
abdulloh_qosim@inbox.ru
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD H.Y.Sagdiyev taqrizi asosida

ABU BAKR HADDODNING ILMIIY MEROSI

Annotsatsiya

Imom Abu Bakr Haddod Zabidiy xususan fiqhda, qolaversa tafsir ilmida ham ko'plab buyuk, ajoyib, qadri va darajasi baland kitoblarni yozishga muvaffaq bo'lgan. U zot yozgan kitoblari hayotlik davridan to bugungi kunga qadar ilm ahllari tomonidan qabul bo'lib, ular orasida keng yoyilgan. Kim dunyo kutubxonalaridan u zotga tegishli qo'lyozma manbalarni izlaydigan bo'lsa, juda ham ko'plab asarlarni, xususan, "Muxtasaru-l-Quduriy" ning ikki sharhi – "as-Siroju-l-vahhoj" va "al-Javharatu-n-nayyira" kitoblarining qo'lyozma nusxalarini topishi mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: fiqh, sunnat, hadis, adabiy me'roslar, tarixchi alloma, Tafsiiru-l-Haddod, as-Siroju-l-vahhoj, Javharatun nayyira.

SCIENTIFIC HERITAGE OF ABU BAKR HADDAD

Annotation

Imam Abu Bakr Haddad Zabidi was able to write many great, wonderful, valuable and high-level books, especially in fiqh, and also in the science of tafsir. The books written by him have been accepted by people of knowledge since his lifetime and are widely distributed among them. Whoever searches the world's libraries for manuscript sources related to him, will find many works, in particular, two commentaries of "Mukhtasaru-l-Quduri" - "as-Siroju-l-wahhaj" and "al-Jawharatu- It will be possible to find manuscript copies of "n-nayyira" books.

Key words: jurisprudence, sunnah, hadith, literary heritage, historian allama, Tafsiiru-l-Haddad, al-Siroju-l-wahhoj, Jawharatun nayyira.

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ АБУ БАКР ХАДДАД

Аннотация

Имам Абу Бакр Хаддад Забиди смог написать много замечательных, ценных и высокоуровневых книг, особенно по фикху, а также по науке тафсир. Книги, написанные им, приняты людьми знания еще при его жизни и широко распространены среди них. Кто поищет в мировых библиотеках рукописные источники, связанные с ним, тот найдет множество работ, в частности, два комментария «Мухтасару-л-Кудури» - «ас-Сироджу-л-ваххадж» и «ал-Джавхарату». найти рукописные экземпляры книг «н-найыра».

Ключевые слова: юриспруденция, сунна, хадисы, литературное наследие, историк аллама, Тафсиру-л-Хаддад, ас-Сироджу-л-вахходж, Джаваратун найыра.

Kirish. Imom Abu Bakr Haddod Zabidiy xususan fiqhda, qolaversa tafsir ilmida ham ko'plab buyuk, ajoyib, qadri va darajasi baland kitoblarni yozishga muvaffaq bo'lgan.

U zot yozgan kitoblari hayotlik davridan to bugungi kunga qadar ilm ahllari tomonidan qabul bo'lib, ular orasida keng yoyilgan.

Kim dunyo kutubxonalaridan u zotga tegishli qo'lyozma manbalarni izlaydigan bo'lsa, juda ham ko'plab asarlarni, xususan, "Muxtasaru-l-Quduriy" ning ikki sharhi – "as-Siroju-l-vahhoj" va "al-Javharatu-n-nayyira" kitoblarining qo'lyozma nusxalarini topishi mumkin bo'ladi.

"al-Javharatu-n-nayyira" kitobi o'tgan asrda hijriy 1301 yilda Turkiyada Usmoniylar saltanati davrida nashr etilgan, so'ng yana bir necha bora chop etilgan. Bu kitobni talabalar xursandchilik bilan kutib olganlar va insonlar ko'plab manfaat olishgan.

SHuningdek, u zotning tafsir kitoblari ham ahli ilmlar orasida mashhur bo'lgan va uning ko'plab qo'lyozma nusxalari mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. U zot yozgan asarlarini ko'plab ulamolar o'z asarlarida keltirib o'tganlar.

Alloma, tarixchi Xazrajijiy "al-Uqudu-l-lu'luiyya" kitobida bu haqida shunday degan: "U zotning yaxshi kitoblari bor bo'lib, Zabid ahli ular sabab fiqhni o'rganishgan va talabalar ko'plab manfaat olganlar"[1].

Imom SHarjiy "Tabaqotu-l-xavos" kitobida shunday degan: "U zotning imom Abu Hanifa roziyallohu anhu mazhabida bitgan buyuk kitoblari bor edi. Unga o'xshash kitobni islom avvalidan to hozirgi kunimizga qadar Yamandagi hanafiy ulamolar yozmagan".

"Tabaqotu-l-xavos" kitobida kelishicha, u zot yozgan asarlari taxminan 20 mujalladga teng keladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Imom Haddod oltita juda katta kitoblarni yozgan bo'lib, har bir kitob bir nechta mujalladdan iborat. U kitoblar quyidagilar:

Tafsiiru-l-Haddod.

Kitobning to'liq nomi "Kashfu-t-tanzil fi tahqiqi-l-mabohis va-t-ta'vil" hisoblanadi.

Kitob haqida "Tabaqotu-l-xavos" kitobi muallifi "Bu kitob foydali kitob bo'lib, hajmi Vositiyning tafsirichalik hajmda"[3] deb aytgan.

SHavkonijiy "al-Badru-t-toli" kitobida "Odamlar orasida "Tafsiiru-l-Haddod" nomi bilan mashhur bo'lgan foydali tafsirdir"[4] deb aytgan.

Kitobning hajmi haqida Hoji Xalifa "Kashfuz zunun" kitobida "U ikki katta mujalladdan iborat"[5] deb aytib o'tgan.

U kitobning birinchi zamonaviy nashri 2003 yilda Bayrutdagi "Doru-l-madori-l-islomiy" nashriyotida Liviya jamohiriyasi Zliten shahri Asmariya islomi bilimlar universiteti tafsir fani o'qituvchisi, doktor Muhammad

Ibrohim Yahyo tahqiqi bilan 7 mujalladda nashr etildi. Bu Tunis, Turkiya va Frantsiyadagi qo'lyozma nusxalardan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Muhaqqiq bu kitobda muallifning tarjimai holini ham, kitob haqidagi ma'lumotlarni ham keltirmagan. Faqatgina 2002 yilda Bayrutdagi "Doru-l-madoril-islomiy" nashriyotida 500 sahifadan iborat "Qur'on tafsiriga kirish (Haddod misolida)" nomli o'quv qo'llanma chop etganini zikr qilgan.

Ushbu tafsir kitobi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlardan yana biri yamanlik doktor Raf'at Husayn Abura 2006 yilda "SHayx Abu Bakr Haddod va uning tafsirdagi manhaji" nomli doktorlik ishini yoqlagan.

SHuningdek, 2005 yilda Turkiyaning Istanbul shahridagi O'n to'qqizinchi may universitetida professor, doktor Ishak Yazichi ilmiy rahbarligida Yavuz Kochak 151 sahifadan iborat "Abu Bakr Haddodning tafsirda qo'llagan uslublari" mavzuidagi magistrlik mavzusini yoqlagan.

Tadqiqotchi O'zmen Ferihan "Sakarya universiteti ilohiyot fakul'teti" jurnalida "Abu Bakr Haddod va tafsir manbalari" maqolasini chop etgan[6].

SHuningdek, mazkur tadqiqotchi "Usul: islom tadqiqotlari" jurnalida "Abu Bakr Haddodning tafsir uslubi" maqolasini e'lon qilgan[7].

as-Siroju-l-vahhoj.

Muallif kitob muqaddimasida uni shunday nomlagan. Biroq "Kashfu-z-zunun" kitobi muallifi bu kitobni "as-Siroju-l-vahhoj-l-muvazzih li kulli tolibin muhoj" deb nomlagan[8].

Bu kitob "Muxtasaru-l-Quduriy" kitobining sharhi hisoblanadi. Kitobning hajmi borasida alloma Qosim ibn Qutlubug'o[9] uning 8 mujalladdan iborat ekanini[10], bu kitobning muxtasari hisoblanmish "al-Javharatu-n-nayyira" kitobi esa, 4 mujalladdan iborat ekanini aytib o'tgan.

Biroq "Kashfuz-zunun" kitobida[11] uning 3 mujalladdan iborat ekanini aytgan.

Bu kabi fikrlar xilma-xilligiga sabab ular o'zlari ko'rgan nusxalardan kelib chiqib aytganlaridir.

Bu kitobning dunyo kutubxonalarida ko'plab nusxalari bor. Azhariyya nusxasining varaqlari soni 3871 varaqni tashkil etadi. Madinai munavvara shahridagi Mahmudiyya kutubxonasida 1036- va 1286-raqam ostida nusxalari saqlanadi[12].

Kitob muqaddimasida imom Haddod kitob haqida shunday deganlar: "O'amlar rabbi Allohga hamd, payg'ambarlar sayyidi sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga, Allohning barcha payg'ambarlari va jami maloikalarga salat va salom bo'lsin. Alloh sahobalardan va tobeinlardan rozi bo'lsin.

Bu kitob "Muxtasaru-l-Quduriy"ning sharhi bo'lib, uni mushkil joylarini sharhlab, qiyin o'rinlarini bayon qilgan holda yozdim. Kitobni yozishda ozlik bilan ko'plik o'rtasini tutdim, muxtasar bo'lib qolishdan ham, cho'zilib ketishdan ham saqlandim. Kitobni qisqa lafzlar, foydali ma'nolar, oson iboralar bilan jamladim, ularni har bir tolibi ilmga bayon qildim va uni "as-Siroju-l-vahhoj" deb nomladim. Bu borada Rahmonur Rahim bo'lgan zotdan yordam so'radim. Tavfiq faqat Allohdir. Unga tavakkal qildim. Zero, U buyuk arsh Rabbidir. Ey pok zot, biz faqat Sen bildirgan narsanigina bilamiz. Sen Alim, Hakim zotsan".

Kitob katta sharh kitob hisoblanib, unda hukmlarning dalillari ham zikr qilingan. Ularga doir munoqashalar u qadar cho'zib yuborilmagan tarzda bayon qilingan. Masalalarga doir misollar ko'plab keltirilgan, ulardagi chigalliklar yechib berilgan. Kitobxon uni o'qiganda masalalar uning zehnidagi gavalanadigan darajada yozilgan. Unda "Muxtasaru-l-Quduriy"ga qaraganda juda ko'plab masalalar bayon qilingan. SHuningdek, kitobda to'rt mazhab ixtiloflari ham keltirib o'tilgan.

"Sirojul vahhoj" kitobiga suyanib bo'lmaydi" degan e'tirozlar va ularga nisbatan javob.

"Kashfu-z-zunun" kitobi muallifi[13] Birakliydan naql qilishicha, u kishi "as-Siroju-l-vahhoj" kitobini suyanilmaydigan, zaif kitoblar qatorida zikr qilgan.

Bu gapga alloma Laknaviy ham "Umdatul-riyo'ya" kitobida ergashgan[14].

Bu gap aslida Birkaviy nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Bir Aliy Rumiy[15] (vaf. 981 h.y.) tomonidan aytilgan gap bo'lib, tahririga va tadqiqqa muhojdir. CHunki bu kabi qisqa tarzda, aytuvchisi tomonida sababi bayon qilmay ifoda etilgan gap bilan kitobga ta'na yetkazish insodan bo'lmaydi. Kim kitob muallifi imom Haddodning tarjimai holini o'rganib chiqsa, uning fihi va fihiy kitoblari borasida ulamolarning maqtovlariga guvoh bo'ladi.

Zirikliy Haddodning yurti Yamandan bo'lgan Zamadiydan naql qilishicha, Zamadiy imom Haddod haqida shunday degan: "U zotning imom Abu Hanifa roziyallohu anhu mazhabida bitgan buyuk kitoblari bor edi. Unga o'xshash kitobni islom avvalidan to hozirgi kunimizga qadar Yamandagi hanafiy ulamolar yozmagan".

"Sirojul vahhoj" kitobiga suyanish mumkinligiga dalolat qiladigan narsalardan biri – Ibn Nujaym "al-Bahru-roi'q" kitobida o'zi suyangani va naql qilgan kitoblari qatorida ushbu kitob ham o'rin olganligidir. "al-Bahru-roi'q"da ko'p marotaba "as-Siroju-l-vahhoj" kitobidan iqtiboslar keltirilgan. SHuningdek, Haskafiy "Durru-l-muxtor"da, Ibn Obidin va boshqalar ham o'z kitoblarida "al-Javharatu-n-nayyira"dan naql qilganlari singari "as-Siroju-l-vahhoj"dan ham naql qilganlar.

"Kitobda zaif ba'zi rivoyat va so'zlar bor" degan e'tirozga keladigan bo'lsak, bu holat kitobning mu'tamad (suyaniadigan manba) va ahli ilm orasida qabul bo'lganligini man qilmaydi. Birgina shuning o'zi bilan kitobni suyanib bo'lmaydigan zaif kitoblar sarasiga qo'shib bo'lmaydi. Qolaversa, gohida ko'plab kitoblarda zaif rivoyatlar keltirib o'tiladi va bundan maqsad – shunday rivoyatlarning borligini bildirib qo'yish bo'ladi yoki bo'lmasa u rivoyat ba'zi ulamolar nazdida marjuh, ba'zilar nazdida rojih bo'ladi.

Azhar, Dammam[16], podsho Faysal[17] universitetlari magistratura va doktorantura talabalaridan iborat bir guruh tadqiqotchilar "as-Siroju-l-vahhoj" kitobini tahqiq qilishni amalga oshirganlar. Biroq hanuz bu kitob shaklida chop etilmadi[18].

Javharatun nayyira.

Bu kitob "Muxtasaru-l-Quduriy" kitobining sharhi bo'lib, muallif bunda "as-Siroju-l-vahhoj" kitobini muxtasar qilgan[19].

"al-Badru-t-toli" kitobida SHavkoniy aytadi: "Abu Bakr Haddodning "Muxtasaru-l-Quduriy" kitobiga yozgan ikki – katta va kichik sharhi bor"[20].

Abu Bakr Haddod "al-Javharatu-n-nayyira"ning muqaddimasida kitob "as-Siroju-l-vahhoj"ning muxtasari ekani haqida so'z yuritmagani. Lekin voqelik shuni ta'kidlaydi. Zero, muallif "al-Javharatu-n-nayyira"ning ko'p o'rinlarida "as-Siroju-l-vahhoj"dan iqtiboslar keltirgan.

"al-Javharatu-n-nayyira" kitobi 3 bora nashr etilgan:

1. 800 sahifadan iborat ikki mujalladda – birinchisi 382, ikkinchisi 420 sahifadan iborat. Bu nashr usmoniy tab'asida hijriy 1301 yilda Bobi Ali yaqinida joylashgan "Mahmudbek" matbaasida chop etilgan.

2. Bu nashr Maydoniyning "al-Lubob fi sharhi-l-kitob" asari bilan birgalikda chiqarilgan. Bu kitob ham ikki mujalladdan iborat bo'lib, hijriy 1316 yilda usmoniy tab'asida Istanbuldagi "Omira" matbaasida chop etilgan.

3. Hijriy 1328 yilda Hind diyorida Dehli shahrida chop etilgan.

Ushbu asar haqida dissertatsiyaning II bobida izlanish olib borildi.

Imom Abu Bakr Haddod Zabidiy umrini ilm, unga amal qilish, Alloh taolaga toat-ibodat bilan qurbat hosil qilish yo'lida o'tkazdilar. U zot husni xulq sohibi edi. Vafotidan oldin ko'zlari ojiz bo'lib qoldi. So'ng olim hijriy 800 yil jumodul ulo oyining oltinchi kuni shanba kechasida olamdan o'tdi. Vafot etgan paytida u zotning yoshi 80 da edi. U zot Zabid shahridagi "Qartab eshigi" qabristoniga dafn etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, faqih Abu Bakr Haddod Zabidiy hanafiy o'z zamonasining buyuk faqihlaridan biri hisoblangan. Uning yozgan asarlariga olimlar Yaman diyorida u kishidan avval ham, keyin ham unga o'xshash kitob yozilmagan, deya e'tirof etishgan. Allomaning bir qancha mashhur asarlari bo'lib, ular borasida tadqiqotlar olib borilgan.

4. an-Nuru-l-mustanir sharhu-l-manzumati-n-nasafiyya fi-l-xilofiyot (al-Manzuma fi-l-xilofiyot).

Kitob Najmiddin Umar ibn Muhammad Nasafiy (vaf. 537 h.y.)ning nazmiy "al-Manzumatu-n-nasafiyya" kitobiga yozilgan sharh hisoblanadi.

"al-Manzumatu-n-nasafiyya" kitobi 2666 baytdan iborat. "Kashfu-z-zunun" kitobida kelishicha, ushbu "an-Nuru-l-mustanir" kitobi bitta katta mujalladan iborat[21].

Ushbu kitobning qo'lyozma nusxasi Tunisdagi Zaytuna jomesida 2443/601-raqam ostida saqlanadi[22].

5. Siroju-z-zolam va badru-t-tamom sharhu-l-manzumati-l-homiliyya.

Bu kitob fiqhiy kitob bo'lib, imom Haddodning ustozlari alloma Siroj Abu Bakr ibn Ali ibn Muso Homiliy Hanafiy Yamaniy (vaf. 769 h.y.)ning "Durru-l-muhtadiy va zuxru-l-muqtadiy" nomli nazmiy asariga yozilgan sharh hisoblanadi.

Ushbu "Siroju-z-zolam" kitobi 2 katta mujalladan iborat ekanligi "Kashfuz zunun" kitobida aytib o'tilgan[23].

6. Ar-Rahiqu-l-maxtum sharhu manzumati qaydi-l-avobid lima fih min ta'lifi-sh-shavovid.

Bu kitob fiqhga oid bo'lib, Najmiddin Nasafiy (vaf. 537 h.y.)ning nazmiy "Manzumatu qaydi-l-avobid lima fih min ta'lifi-sh-shavovid" asariga yozilgan sharhdir.

"Toju-t-tarojum" kitobida kelishicha, kitob bir jildidan iborat[24]. Bu kitobning bir qancha nusxalari bo'lib, bular haqida "al-Fihrisu-sh-shomil" kitobida batafsil ma'lumot berilgan[25].

"Manzumati qaydi-l-avobid" nazmining "Doru-l-kutubi-l-misriyya"da 822-raqam ostida saqlanayotgan nusxasi mavjud[26].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, olim Abu Bakr Haddod XIV (hijriy VIII) asrning nafaqat Yaman diyoridagi, balki butun islom olamidagi ko'zga ko'ringan faqihlaridan biri bo'lgan. U kishining tarjimai holini o'rganish uchun ko'plab tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan. Uning yozgan asarlari to hozirgi kunimizga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR

1. Hilol nashriyoti. Qohira. 1329. 2-jild. 296-bet.
2. Doru-l-yamaniyya. 1406. 392-bet.
3. Doru-l-yamaniyya. 1406. 392-bet.
4. Doru-l-ma'rifa. Bayrut: 1-jild. 166-bet.
5. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1488-bet.
6. 2013. XV jild. 28-son. 43-63 s.
7. 2015. 23-son. 67-94 s.
8. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1631-bet.
9. Toju-t-tarojum. Tahqiq: Muhammad Xayr Ramazon Yusuf. Doru-l-qalam. Damashq: 1992/1413. 142-bet.
10. al-Fihrisu-sh-shomil. Oli bayt muassasasi. Omman. Iordaniya. 1420. 4-jild. 637-bet.
11. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1631-bet.
12. al-Fihrisu-sh-shomil. Oli bayt muassasasi. Omman. Iordaniya. 1420. 4-jild. 634-bet.
13. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1631-bet.
14. Umdatul-riyoa. Abdulhay Laknaviy. Doru-l-kutubi-l-ilmiyya. Bayrut. 2009. 1-jild. 11-12-betlar.
15. Zirikliy "al-A'lom" kitobi 6-jild 61-sahifasida u kishining tarjimai holini keltirib, arab tili olimi, va'z borasidagi "Tariqatu-l-Muhammadiyya" kitobi muallifi ekanini aytgan. Bag'dodiy ham "Hadiyyatu-l-orifin" kitobi 2-jild 252-betda uning tarjimai holini keltirib, uning sufiy hanafiy faqihi ekanini aytib o'tgan.
16. Saudiya Arabistoni Dammam shahrida joylashgan universitet bo'lib, unga 1975-yilda asos solingan. Universitetning rasmiy nomi imom Abdurrahmon ibn Faysal universitetidir.
17. Saudiya Arabistoni Dammam shahrida joylashgan universitet bo'lib, unga 1975-yilda asos solingan.
18. al-Javharatu-n-nayyira. Abu Bakr ibn Ali Haddod. Tahqiq: doktor Soid Bekdosh. Arviqa. Omman. Iordaniya. 2015 y /1436 h. 32-bet.
19. Kashfu-z-zunun. Hoji Xalifa. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1631-bet.
20. Doru-l-ma'rifa. Bayrut. 1-jild. 166-bet.
21. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1868-bet.
22. al-Fihrisu-sh-shomil. Oli bayt muassasasi. Omman. Iordaniya. 1420. 11-jild. 349-bet.
23. Maorif vakilligi. Turkiya. 2-jild. 1868-bet.
24. Tahqiq: Muhammad Xayr Ramazon Yusuf. Doru-l-qalam. Damashq: 1992/1413. 141-bet.
25. Oli bayt muassasasi. Omman. Iordaniya. 1420. 4-jild. 295-bet.
26. al-Fihrisu-sh-shomil. Oli bayt muassasasi. Omman. Iordaniya. 1420. 8-jild. 211-bet.



УДК: 34(042)(575.1)

Ситора МЕНГЛИЕВА,
Магистрантка ТГЮУ по специальности бизнес-право
E-mail: stiora.mengliyeva@gmail.com

На основе рецензии Б.Б.Худайбергана, докторанта ТГЮУ, (PhD)

ЭЛЕКТРОННАЯ КОММЕРЦИЯ: ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПУТИ РАЗВИТИЯ

Аннотация

Интернет стал новой платформой для развития коммерции, которая в свою очередь способствовала созданию новых сфер трудоустройства. Однако это явление не столь новое, так как первые шаги к электронной коммерции предпринимались в семидесятых годах. С тех пор сама отрасль прошла три обширных этапа развития. Статья посвящается анализу этого историко-экономических этапов, способов и рычагов распространения электронной коммерции.

Ключевые слова: Электронный обмен данных, транзакция товаров, электронный маркетплейс, мобильная коммерция.

ELEKTRON TIJORAT: SHAKLLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT YO‘LLARI

Аннотация

Internet tijorat rivoji uchun yangi platformaga aylandi, bu esa o‘z navbatida bandlikning yangi tur, yo‘nalishlari paydo bo‘lishida vositachi bo‘ldi. Biroq bu fenomen yangilik emas, elektron tijorat yo‘lidagi ilk qadamlar o‘tgan asrning yetmishinchi yillarida amalga oshirilgan. Shundan buyon soha taraqqiyotning uch yirik bosqichini bosib o‘tdi. Maqola shu tarixiy-iqtisodiy bosqichlar, elektron tijorat ommalashuvi yo‘llari va vositalari tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Elektron axborot almashinuvi, tovarlar tranzaksiyasi, elektron marketpleys, mobil tijorat.

ELECTRON COMMERCE: HISTORY OF FORMATION AND DEVELOPMENT PATHS

Annotation

The Internet has become a new platform for the development of commerce, which in turn has contributed to the creation of new areas of employment. However, this phenomenon is not so new, since the first steps towards e-commerce were taken in the seventies. Since then, the industry itself has gone through three broad phases of development. The article is devoted to the analysis of this historical and economic stages, methods and levers for the spread of e-commerce.

Key words: Electronic data interchange, goods transaction, electronic marketplace, mobile commerce.

Введение. Переход к новой эре, преобразования и цифровизация человеческой деятельности, способствовало быстрому прогрессу и росту торговли к тому же промышленности, также экономики в целом. Современный этап мирового сообщество в ходе преобразования к новому совершенствованию характеризуется именно с улучшением и упрощением задач в контексте социально-экономическими отношениями внутри государства и во внешней политике страны. Всеобщее употребление электронных гаджетов среди населения мира, внедрение современных технологий в государственном управлении и документообороте, а также в сфере коммерческой деятельности, стимулировало резкому росту к пути созданию правовых актов, норм и законов для регулирования предпринимательской деятельности и создании новых интернет-площадок к общему употреблению, которые объединяют юридических и физических лиц в единое мировое информационно-технологическое общество, превосходяв географических границ национального государства и представляя собой транснациональную-межкультурную целое.

Рост электронной коммерции в течение формирования развивался без каких-либо стагнаций и признаков замедления. Учитывая постепенную цифровизацию всех сфер человеческой деятельности, а также улучшение и повышение доступности высокоскоростного интернета способствовала росту электронной коммерции. Следует отметить, что формирование электронной коммерции опирается на

традиционную коммерцию и цифровизацию коммерции в общем плане.

В конце XX века большое число коммерческих сделок в международной торговле, которые заключались с помощью электронного обмена данными и других передачи данных, приравнявшейся к традиционным документам на бумажном носителе, обошли альтернативную форму заключения сделок в соответствии с резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН №A/51/628 от 16 декабря 1996 года[1]. А также, в докладе об электронной торговле и развитии за 2001 г.[2], прогнозируется, что рост мировой экономики будет постепенно развиваться насчет внедрение информационных технологий и повышение доступности высокоскоростного интернета, с тем самым привлекая новых пользователей в электронной площадке.

История возникновения электронной коммерции весьма своеобразна, так как в этапе формирования электронная коммерция не была создана как отдельная сфера и видом торговли. Онлайн торговля постепенно развивалась, опираясь на информационные технологии. Она делится на несколько этапов, каждый этап содействовал на образование электронной коммерции в целом. Первый этап охватывает 1960 – 1982 годы и предстоит назвать данную стадию «Первые шаги к пути изобретению электронной коммерции». Второй этап содержит 1982 – 1990 годы, когда первые онлайн торговые площадки внедрились. Третий этап включает в себя середину 90-х годов и настоящее время: торговые площадки, платежи и рост электронной коммерции.

Формирование данной сферы связана с созданием и разработкой (EDI) electronic data interchange (электронный обмен данными) в середине 1969-х годов, когда транспортные компании и некоторые отрасли розничной торговли пытались создать «бесбумажные» офисы, с тем самым данная образования способствовало развитию электронного обмена данными. В середине 1970-х годов электронный обмен данными был формализован Аккредитованным комитетом по стандартам, состоящим из представителей отрасли, и в 1970-х и 1980-х годах другие компании начали внедрять (EDI)[3]. EDI позволял компаниям обмениваться информацией, размещать заказы и осуществлять электронные переводы средств через компьютеры. Данная операция упрощала документооборот на несколько раз, несмотря на это распространение EDI было медленным. К концу 1990-х годов менее одного процента компаний в Европе и США внедряли EDI (Timmers, 1999)[4].

Вторая стадия развития электронной коммерции характеризуется транзакцией товаров и услуг через интернет, который в своем развитии превратился в коммерческий инструмент. Например, видео, снятое Shopify, компанией-разработчиком программного обеспечения для электронной коммерции, рассказывает историю сделки, заключенной между студентами Стэнфордского университета и Массачусетского технологического института где-то между 1971 и 1972 годами о покупке травы через ARPANET, предшественника Интернета, который мы знаем сегодня[5]. В 1976 году процесс онлайн транзакции впервые был введен, с тем самым данный прогресс способствовал созданию электронных покупок в 1979 году. Кроме того, электронная коммерция в этом этапе ввелась путем применением модифицированного телевизора к компьютеру, обрабатывающему транзакции, через телефонную линию. Система была продана в 1980 году и предлагалась как платформа для бизнеса, которая затем продавалась в Великобритании, Ирландии и Испании[6]. Book Stacks Unlimited, книжный онлайн-магазин, созданный Чарльзом М. Стэком в 1992 году, был одним из первых потребительских магазинов. Магазин Стэка начинался как доска объявлений с коммутируемым доступом за три года до основания Amazon.

Следует отметить, что развитие электронной коммерции тесно связано с распространением интернета. 1991 году онлайн шопинг стал доступным для подавляющего большинства проживающих в урбанизированной местности. Когда впервые Amazon открыл интернет-сайт представляющие продажу услуг и товаров, след за ним последовали и другие тысячи бизнесов по всему миру открыв новые электронные площадки.

Третий этап характеризуется с развитием электронных площадок, то есть маркетплейсов,

соответственно с появлением новых видов платежных систем и ростом электронной коммерции. В середине 90-х годов коммерция в условиях электронного взаимодействия произошел значительный прогресс. Одним из первых сайтов электронной коммерции был Amazon начиная свою деятельность в 1995 году, как онлайн книжный магазин и так далее превратился в крупнейший онлайн магазин. Вслед за Amazon последовал eBay, сайт онлайн-аукционов, который был запущен в 1995, и Etsy, который был создан в 2005 году и валовой объем продаж товаров составил 4,97 миллиарда долларов по всему миру.

По мере того, как большая часть общества начало вести бизнес в Интернете, потребность в безопасном общении и транзакциях платежей вырос. В 2004 году был создан Совет по стандартам безопасности индустрии платежных карт (PCI), чтобы обеспечить соблюдение предприятиями различных требований безопасности[7]. Цель организации считалась разработка, усовершенствование, хранение, распространение и внедрение стандартов безопасности для защиты данных учетных записей клиентов.

Мобильная коммерция зародилась в 1997 году, когда в Финляндии были установлены два торговых автомата Coca-Cola с поддержкой мобильных устройств[8]. В течение следующих десятилетий оборот мобильной коммерции вырос, поскольку большое количество пользователей начали совершать онлайн покупки и транзакции через мобильные гаджеты. Согласно прогнозам Statista, мобильная электронная коммерция достигла 54% всех продаж электронной коммерции в 2022 году и доход от электронной коммерции в настоящее время составляет около 10% от общего розничного дохода. Ожидается, что к 2025 году объем продаж мобильной коммерции достигнет 728.2 миллиарда долларов.

В развитых странах мира на экономическому росту способствует развитие интернета, а также распространения и внедрения информационных технологий на деятельность современного общества. Экономический рост развитых стран мира увеличивается на счет электронной торговли, в своем очереди электронная коммерция позволяет компаниям добиться конкурентного преимущество в улучшении обслуживания, устанавливая безграничные возможности для продажи товаров и услуг по всему миру, уменьшая расходов. Кроме того, электронная коммерция имеет огромный потенциал, страна, которая хочет иметь развитую электронную коммерцию, должна иметь функциональную налоговую систему, способствующий использовать платежных систем в электронной коммерции.

ЛИТЕРАТУРА

1. Резолюция N-ООН А/51/628 от 1. Генеральная Ассамблея ООН [1996].
2. E-commerce and development report 2001. United nations conference on trade and development. New york and Geneva, 2001.
3. Tian Yan & Stewart, Concetta. (2007). History of E-Commerce. 10.4018/9781599049434.ch001.
4. Tian Yan & Stewart, Concetta. (2007). History of E-Commerce. 10.4018/9781599049434.ch001.
5. Richael Swatman 1971: First Ever Email (2015). <https://www.guinnessworldrecords.com/news/60at60/2015/8/1971-first-ever-email-392973>.
6. Tian Yan & Stewart, Concetta. (2007). History of E-Commerce. 10.4018/9781599049434.ch001.
7. Стандарт безопасности индустрии платежных карт. https://ru.frwiki.wiki/wiki/Norme_de_sécurité_de_l'industrie_des_cartes_de_paiement.
8. Le Pham. Mobile commerce technology: definition, theory, and how it works <https://magenest.com/en/mobile-commerce-technology/>.



UDK:37; 371; 57;

Shaxnoza NURMATOVA,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fanlari yo‘nalishi o‘qituvchisi,

E-mail: xusanbaevashahnoz@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘quv uslubiyot departamenti boshlig‘i, p.f.f.d., S.B.Qoraev taqrizi asosida

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF HOME EDUCATION IN THE COUNTRIES OF THE WORLD

Annotation

The article will talk about the need to develop home education in the conditions of an innovative cluster of teacher education, the history of home education in developed countries.

Key words: Home Education, Development, Law, parents, school, classifier, professionogram, education, history, institution, development.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ДОМАШНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ МИРА

Аннотация

В статье рассматривается необходимость развития обучения на дому в условиях инновационного кластера педагогического образования, история обучения на дому в развитых странах.

Ключевые слова: Домашнее обучение, развитие, право, родители, школа, классификатор, профессиограмма, образование, история, учреждение, развитие.

JAHON MAMLAKATLARIDA UY TA'LIMINING RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik ta'limning innovasion klasteri sharoitida uy ta'limini rivojlantirish zarurati, uy ta'limining rivojlangan davlatlarda amalga oshirilish tarixi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Uy ta'limi, taraqqiyot, qonun, ota-ona, maktab, klassifikator, profissioγραμμα, ta'lim, tarix, muassasa, taraqqiyot.

Kirish. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat [2]. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Uy ta'limi asosan chet davlatlarda ancha yillar oldin shakllanib, o'zini oqlab kelgan. YUrtimizda uy ta'limi tushunchasi 19 asrning oxirida ma'rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan uy maktablari davrida paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarining Buxoroda birinchi "usuli jadida" maktabi bo'limida yozilishicha, 1908 - yil oktyabrda Buxoro shahrining Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohid Munzim o'z uyida forsiy (tojik) tilida dars beruvchi ilk usuli jadid maktabini ochadi. 1907-yilda esa tatar ma'rifatparvari Nizomiddin Sobitov (Sobitiy) o'z uyida qozi Mir Badriddin qozikalon ruxsati bilan tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. SHU

yillarda Shahrisabz bekligida Islomqul To'qsabo o'z uyida maktab ochib, Toshkent va Samarqanddan bir necha muallimlarni ishga taklif etgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, Buxoro amirligida uy maktablari ya'ni uy ta'limi XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni videoselektor yig'ilishidagi nutqida "Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlasak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan ya'ni bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini guvohi bo'lamiz. Chunki ta'lim-tarbiyani o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab"[1]. Lekin, hozirgi kunda jahonda an'anaviy ta'limdan tashqari uy ta'limiga ham sezilarli darajada katta e'tibor qaratilmoqda. Hududiy nuqtai nazardan qaralganda Rossiya bilan AQSH misolida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Uy ta'limi XX asrning 80-yillarida mutlaqo kutilmagan joyda ya'ni, AQSHda vujudga keldi. Ammo, uy ta'limi bu mamlakat uchun yangilik emas edi. Mamlakatda uy ta'limining paydo bo'lishi ota-onalar talabi asosida vujudga kelgan. Jumladan, davlat tashkilotlarida ishlaydigan ota-onalar farzandlarini qarovsiz qolib ketmasligi, vaqtini unumli tashkil etishi hamda xavfsizligini ta'minlash maqsadida uyda turib o'qitish istagini bildirganlar [3].

Hozirgi kunda uy ta'limi mamlakatning 50 ta shtatida qonuniy deb tan olingan. Faqatgina ota-onalarga qo'yiladigan talablar bilan farqlanadi. Mamlakatning 28 ta shtatida uy ta'limida ta'lim olayotgan bolalardan o'tib bo'lingan dasturi asosida maxsus davlat testini topshirishi talab qilinadi. 13 ta shtatda esa ota-onalar o'z farzandlarining uyda ta'lim olayotganligi haqida davlat rasmiylarini habardor qilishlari shart hisoblanadi. Mamlakatning Texas shtatida ota-onalar o'z farzandlarining mustaqil ravishda ta'lim olishlarini kim

bo'lishidan qat'iy nazar rasmiylarni habardor qilishlari majbur emas.

Uy ta'limi tarafdorlari bo'lgan ota-onalar davlat maktablari bergan ta'lim va tarbiyadan ko'ra, uy ta'limi nisbatan sifatliroq va chuqurroq o'rgatiladi deb hisoblashgan. SHuning bilan birga zamonaviy texnologiyalar ham uy ta'limining tarafdori. Internet deyarli har qanday ma'lumotni juda qisqa vaqt ichida, istalgan hajmda va istalgan vaqtda olish imkonini beradi. Milliy institut ma'lumotlariga ko'ra AQSHda uy ta'limini berish va uyda o'qitish odatiy ta'limga aylanib bo'lgan. Bundan tashqari, har yili uy ta'limini olgan o'quvchilar soni oddiy maktab ta'limini olgan o'quvchilar sonidan 5-12 foizga ortib bormoqda.

2018-2019-yillarda AQSHda uy ta'limini olgan o'quvchilar soni 3,5-4,5 millionta edi. (AQSHning Ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 1984-yilda taxminan 50 mingdan ortiq bolalar uyda ta'lim olishgan, 1988-yilda esa, bu ko'rsatgich 300 mingtaga, 1998-yilda 1,5 milliontaga etgan). Uy ta'limining yana bir afzalliklaridan biri – uyda qancha ko'p bola ta'lim olsa jamiyat uchun shuncha foydaliroqdir. Gap shundaki, bunday o'quvchilar byudjetining ta'limga sarflagan qismiga hiyonat qilmaydilar va bu AQSHda ta'lim byudjetidan yiliga 16 milliard dollar tejab qolinishga erishiladi.

Bundan tashqari statistik ma'lumotlarga ko'ra, uyda ta'lim olgan o'quvchilar boshqa o'quvchilarga qaraganda an'anaviy testlarni nisbatan muvaffaqiyatli topshirishadi. Odatda, ular nazorat ishlarida 1,5-3 foiz ko'proq javob beradilar. Oliy ta'lim muassasalariga uy ta'limini olgan bolalar, maktabda ta'lim olgan tengdoshlariga nisbatan imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tishadi.

Agar AQSH bilan evropa mamlakatlarni taqqoslasak har bir mamlakatda uy ta'limi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Uy ta'limi tobora ommalashib bormoqda. Masalan, Britaniyada bola maktabda yoki uyda ta'lim olishidan qat'iy nazar boshlang'ich ta'lim majburiy hisoblanadi. 1999-yilda Britaniyaning "The Economist" haftaligining ma'lumotlariga ko'ra, uy ta'limini oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari 12 000 nafarni tashkil qilar edi, 2005-yilda esa bu ko'rsatgich 20 000 taga etdi. (6 yilda 8 000 taga oshgan bo'lsa, 2017-yilda 36 000 ta, 2021-yilda esa 40 000 tadan oshiq). Ammo mutaxassislarning fikriga ko'ra bu raqamlar ikki barobarga kamaytirilgan (bolalarning asosiy qismi statistikaga kiritilmagan). SHu sababli uy ta'limini oluvchi bolalar soni 50 000 ga yaqin deb hisoblanadi. Boshqa sohalar singari ta'lim sohasida ham Britaniya uchun an'anaviy bo'lgan

Evropa va Amerika o'rtasidagi holat kuzatiladi (Masalan, Germaniyada uyda ta'lim olish qonunchilik bilan ta'qiqlangan va noqonuniy hisoblanadi) [4].

Rossiya imperiyasida eng samarali, muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya shakllaridan biri bu - uy ta'limidir. Bunda ota-onalar malakali uy pedagoglarni o'z farzandlari uchun jalb qilishgan. Asosan, uy ta'limidan zodagonlarning farzandlari foydalanishgan. Bundan tashqari, uy ta'limi etarli darajada samarali hisoblangan: yoshlar qadimiy tillarda va evropa tillarida erkin mulqot qila olgan, boshqa fanlardan keng bilimga ega bulishgan. Uy ta'limini asosan o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan insonlari olishgan[5].

Balki, ko'p badavlat ota-onalar o'z farzandlarini hukumat aralashuvizis uyda o'qitishni xohlashar (ehtimol ta'lim sifati yuqori bo'lar), lekin bu uzoq kelajak istiqbolidir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Mamlakatimizda ham uy ta'limi nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan imkoniyati cheklangan, balki sog'lom bolalar uchun ham joriy qilish yaxshi samara beradi. Chunki, uy ta'limi asosan chet davlatlarda ancha yillar oldin shakllanib, ommalashib kelgan.

Uy ta'limini rivojlantirish uchun quyidagi omillarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

Ota-onalarda uy ta'limining afzalliklari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish;

Ota-onalarni farzandlarining qiziqishiga qarab uy pedagogini jalb qilish;

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlariga qo'shimcha ravishda uy pedagogi mutaxassislarini tayyorlashga erishish;

Uy pedagogi ta'lim yo'nalishini OTM i kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoriga qo'shish;

Uy pedagogi mutaxassisligi bo'yicha kasbiy profессиogramma ishlab chiqish;

Uy pedagogining kasbiy kompetentlik darajalarini ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, insoniyat tarixiy taraqqiyot davrida ta'lim yo'lida olib borilgan barcha islohotlar inson kamoloti uchun xizmat qilgan. Davlat tizimi, boshqaruv organlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar uy ta'limi tizimi kishilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. – "Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi" – Jamiyat, 2019.
2. Umurzoqov O.P. "Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi" – T: Xalq so'zi onlayn, 2020.
3. Home Education // The Economist. 2005. № 8428. P. 38.
4. Young people in Britain: Foreign and Commonwealth Office. London, 1999.
5. Beyzerov V.A. starshiy prepodavatel' kafedry pedagogiki Gosudarstvennogo universiteta im. Skoriny F., kandidat pedagogicheskix nauk, g. Gomel', Respublika Belarus' "Domashnee obrazovanie" - Zarubejnaya shkola, 2011.
6. Temirov F. "Buxorodagi yangi usul maktablari yopilishiga nima sabab bo'lgan?" – Bukhara news, 2023.



UDK: 358.44

Xabibullo XASANBAEV,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: khasanov@gmail.com

O‘zRMV dotsenti, yu.f.n. U.Mamadaliev taqrizi asosida

HISTORY OF THE MILITARY EDUCATION SYSTEM AND THE STAGES OF ITS DEVELOPMENT

Annotation

The article analyzes the main stages in the development and history of the military education system, explores the development of military art, the emergence, formation and development of the system for training military specialists, as well as the development and improvement of military art, the emergence and development of military education as a result of the development and improvement of weapons and military technology, its place in the system of designation, the stages of the implementation of military education by military schools and military academies.

Key words: Military education, education system, military art, weapons, military equipment, academy, school, specialist, military reality, commission.

ИСТОРИЯ СИСТЕМЫ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЭТАПЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье произведен анализ основных этапов развития и истории системы военного образования, исследован процесс развития военного искусства, возникновения, формирования и развития системы подготовки военных специалистов, а также развитие и совершенствование военного искусства, возникновение и развитие военного образования в результате развития и совершенствования вооружения и военной техники, ее место в системе образования, этапы осуществления военного образования со стороны военных школ и военных академий.

Ключевые слова: Военное образование, система образования, военное искусство, вооружение, военная техника, академия, школа, специалист, военное реалие, комиссия.

HARBIY TA'LIM TIZIMI TARIXI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada harbiy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy bosqichlari va tarixi tahlilga tortilib, harbiy san'at taraqqiyoti, harbiy mutaxassislarni tayyorlash tizimining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni, shuningdek, qurol-yarog' va harbiy texnikaning rivojlanishi natijasida harbiy san'at taraqqiyoti va takomillashuvi, harbiy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning ta'lim tizimida tutgan o'rni, harbiy ta'limning maxsus harbiy maktablari va harbiy akademiyalar tomonidan amalga oshirilishi bosqichlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, ta'lim tizimi, harbiy san'at, qurol-yarog', harbiy texnika, akademiya, maktab, mutaxassis, harbiy real, hay'at.

Kirish. Ta'lim tizimi jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri va u ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi. Bugungi kunda ta'limning ahamiyati tobora oshib, uning ijtimoiy hayotning boshqa sohalar bilan o'zaro aloqalari yanada kengaymoqda. «Ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon»[1]. Ta'lim jamiyatni barqarorlashtirish, uning manfaatlarini uyg'unlashtirishning samarali omilidir.

Asosiy qism. Ta'lim tizimini takomillashtirish mamlakat xavfsizligi, uning siyosiy barqarorligi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi kafolati bo'lib xizmat qiladi. Xususan bugungi kunda harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Harbiy ta'lim - Qurolli Kuchlarning turli bo'g'inlari, harbiy qismlar va maxsus kuchlar uchun kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanib, ushbu termin ofitser va boshqa harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyatida zarur bo'lgan fundamental va maxsus harbiy fanlar bo'yicha tizimlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisini anglatadi.

Harbiy ta'lim tizimi o'z rivojlanish tarixiga ega bo'lib ushbu jarayon davriylikni qamrab oladi. Harbiy ta'limning

paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita harbiy san'at taraqqiyoti bilan izchil bog'liqdir.

Harbiy ta'lim mustaqil maxsus ta'lim hamda harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi sifatida XVII-asrning oxirlari va XVIII-asr boshlarida Yevropa davlatlarda shakllanib bir qator ixtisoslashtirilgan harbiy bilim yurtlari tuzildi. Keyinchalik qo'shinlarning harbiy texnika va qurol-yarog' bilan ta'minlanishi, harbiy sohaning nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishi oqibatida, muayyan sohadagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bordi.

Harbiy ta'lim - bu erishilgan ta'lim darajasi bayonnomasi bilan birga harbiy mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoni. Harbiy ta'limning asosiy maqsadi. - qo'shinlarga (kuchlarga) malakali harbiy kadrlarni tayyorlash va yetkazib berish.

Insoniyat tarixining barcha davrlarida davlat qo'shinlari uning tayanchi, xalqning tinchligi va osoyishtaligi garovi bo'lib kelgan.

Sparta davlatida alohida davlat muassasalari mavjud bo'lib unda harbiy tusdagi maxsus o'yinlar tashkil etilib harbiy gimnastika mashqlariga ko'p e'tibor berilgan. Yoshlarga kurashish, qo'l bilan jang qilish usullarini, harbiy ashulalar aytish o'rgatilar edi.

18-20 yoshga yetgan yigitlar alohida efeblar (qadimgi Gretsiyada balog'atga yetgan o'smirlar) guruhiga o'tkazilar va harbiy xizmat o'tar edilar. Qizlarga harbiy va jismoniy tarbiya berishga katta e'tibor berilar edi. Buning sababi shu ediki, erkaklar urushga ketgan vaqtlarida shahar va uy-joylarni himoyasiz qoldirib ketishganda qurollangan xotin-qizlar qo'riqchilik vazifasini o'tagan.

Tadqiqot jarayonida to'plangan manbalar asosida harbiy mutaxassislarni tayyorlash tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonini xorijiy davlatlar misolida tahlil etsak.

Fransiyadagi Oliy harbiy maktabga 1875-yilda asos solinib, mazkur maktab 1880-yildan boshlab to'laqonli faoliyat yurita boshlagan. Bosh ofitser unvonida 5 yil xizmat qilgan ofitserlar dastlabki (yozma) va yakuniy (og'zaki) imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirsagina Oliy harbiy maktabga o'qishga qabul qilingan. O'qish muddati 2 yil etib belgilangan. Oliy harbiy maktabda qurolning har bir turi uchun alohida-alohida qo'llaniladigan taktika, umumiy shtab xizmati, istehkomsozlik, geodeziya, topografiya, nemis tili, huquqshunoslik, siyosiy iqtisod, telegraf san'ati, chavandozlik, geometriya kabi fanlar o'qitilgan. Ofitserlarning amaliy tajribasini oshirish maqsadida ular boshqa qo'shin turlariga amaliyot o'tash uchun[4].

Germaniya harbiy maktabi o'ziga xos tizimlashtirilib, Yevropa davlatlaridagi harbiy ta'lim tizimidan farqli o'laroq ushbu maktab maxsus kurs ko'rinishiga ega bo'lib, kurs sakkiz oydan o'n oygacha davom etgan va unda boshlang'ich nazariy va amaliy harbiy bilimlar berilgan. Prussiya ofitserlari keyingi faoliyatida harbiy maktabda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustaqil takomillashtirib borganlar.

Germaniya harbiy maktabi bitiruvchilariga portuqaliy (praporshchik) unvoni berilgan. Ushbu unvonga 17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan, kamida olti oy davomida harbiy xizmatni o'tagan va maxsus imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan shaxslardagina erisha olgan. Prussiya armiyasida portuqaliy (praporshchik)largina ofitser unvonini olish huquqiga ega bo'lgan[4].

Germaniyadagi harbiy akademiya tizimida ham boshqa Yevropa davlatlaridagi kabi muayyan o'zgarishlar ro'y bergan. Germaniya harbiy akademiasining tashkil etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, layoqatli ofitserlarga oliy harbiy ta'lim berish bo'lgan. Akademiya 3 yil ofitser unvonida xizmat qilgan harbiy xizmatchi qabul qilingan[9].

Xitoy qo'shinlarida ofitser lavozimini to'ldirish asosan kelib chiqishi bo'yicha sulolaviy ko'rinishga ega bo'lgan va ba'zi hollarda maxsus tanlovlarda o'zini yaxshi ko'rsatgan shaxslar hisobiga ham amalga oshirilgan. Masalan, Manchjur harbiy amaldorlar qatlamida merosiy huquq asosida unvon olish hollari keng tarqalgan. Xizmat o'tayotgan sakkiz bayroqdorning farzandlari otalarining o'rni egallashi uchun mamlakatning eng mashhur maktablarida tahsil olishgan.

Yaponiyada harbiy ta'lim maxsus harbiy maktablar va harbiy akademiyalar tomonidan amalga oshiriladi. O'lis Etadzima orolida joylashgan dengiz maktabi misolida Yaponiyadagi harbiy ta'lim tizimini Yevropa davlatlaridagi harbiy ta'lim muassasalariga nisbatan farqi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish mumkin.

Mazkur dengiz maktabiga 16 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan tibbiy ko'rikdan o'tgan, sog'lom, belgilangan fanlar (xitoy va yapon tillaridan insho, ingliz tili, matematika, geografiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar tarixi, fizika, kimyo, chizmachilik va tasviriy san'at hamda yapon gimnastikasi) bo'yicha kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorlar o'qishga qabul qilingan.

O'rta Osiyo hududida mudofaa sohasi rivoji bronza davri (mil.av. III ming yillikning ikkinchi yarmi – mil.av. II yillik)ga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyoda Sosoniylar davrida urush va harbiy – jismoniy tayyorgarlik nazariyasi ishlab chiqilib, saroy ahllari

uchun yozilgan "O'yinnoma" nomli kitobda bayon qilingan. Ushbu maktabda chovkon o'yini (sarbozlarning to'p o'yini), o'q yoydan otish mashqlarining batafsil qoidalari o'rganilgan hamda harbiy xizmatchilarni jangovor faoliyatga tayyorlash va tarbiyalashning muhim qismi hisoblangan. Fikrlarimizni "O'yinnoma" da keltirilgan quyidagi qoidalar bilan mustahkamlaymiz:

Jang boshlanishi oldidan qo'shinlarni shunday joylashtirish kerakki, quyosh nuri ularning orqa tomonidan tushsin va shamol ham orqa tomondan kelib tursin;

Kechalari shamol g'uvillab yoki daryo sharqirab oqib turgan paytda hujum qilib, shu tariqa niqoblanishi kerak;

Agar dushman qo'lidan suv manbaini tortib olish kerak bo'lsa, dushmanning otlari va odamlari suvga qongan o'z otlaringiz esa chanoq suvga intilyotgan vaqtda jang boshlash kerak;

Qo'shinlarning chap tomoniga chapaqay o'qchilarni qo'yish kerak, toki o'qlarni turli tomonlarga qaratib otish mumkin bo'lmasin[16].

Somoniylar (875-999) davrida davlat boshqaruvi, hukmronlik tizimli yo'lga qo'yilib doimiy qo'shinni tashkil etish bo'yicha islohotlar o'tkazilgan. Qo'shinlar doimiy maxsus gvardiya va muvaqqat qo'shiniga bo'lingan. Qo'shinda tanlangan, harbiy jihatdan chiniquan turk g'ulomlaridan iborat saroy gvardiyasi katta rol o'ynagan. Mutafakkir va davlat arbobi Nizomulmulk at-Tusiy (1018-1092) asarlarida saroy gvardiyasi tavsifi keltirilgan[17].

Qoraxoniylar davlati ham barcha davlatlar kabi qo'shinga ehtiyoj baland bo'lib, faoliyat doimo qo'shinga tayangan holda olib borgan. Markaziy hokimiyat tomonidan qo'shinni sifat jihatdan takomillashtirishga katta e'tibor berilib qo'shinni boshqarish taktik jihatdan takomillashtirishgan. Harbiy harakatlarga oldindan tayyorgarlik ko'rilib harbiy mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Harbiy yurishlar vaqtida dushman qo'shiniga qarshi pistirma qo'yish, dushman hujumidan saqlanish uchun baland va qulay joylarga harbiy istehkomlar qurish (qarg'u), kechasi esa dushman ustiga qo'qqisidan hujum uyushtiradigan (aqinchi) maxsus harbiy bo'linmalar mavjud bo'lgan. Harbiy harakatlar davomida harbiy bo'linmalar o'ziga tegishli vazifani bajarishga fidsoslashtirilgan. Jangda faol ishtirok etgan askarlar fidoyiligi uchun taqdirlanishgan hamda mansablari oshirib borilgan.

G'aznaviylar davrida saroy maktablarida ta'lim bir qancha yo'nalishtirish asosida tashkil etilib maktablarda maxsus o'quv kursi va harbiy tayyorgarlik yo'nalishtirish joriy etilgan. Harbiy sohada o'zgarishlar natijasida qo'shin tuzilishining o'ziga xos jixatlari shakllangan, unda boshqa davlat qo'shin tuzilmalaridan farqli o'laroq qaram kishilar yoki amir xizmatida bo'lgan harbiy asirlar va zodagon vakillardan iborat maxsus tuzilmalar tashkil etilgan. Maxsus tuzilma tarkibi sharqiy chegara viloyatlari – Movarounnahr, Taroz, Qoshg'ar va Xo'ntondan kelgan g'ulomlar bilan shakllantirilgan. Ular keyinchalik xususiy va saroy maktablarida maxsus o'quv kursi va harbiy tayyorgarlikni o'taganlar. G'ulomlar bir qancha kategoriyaga (saroy g'ulomlari, sultonga tansoqchilar va bayroqdorlar) bo'lingan.

Xorazmshohlar davlati (1097-1231) o'z davrining qudratli qo'shiniga ega bo'lib, unda qo'shinlarni to'ldirish, ta'minlash va harbiy ta'lim tizimlari yo'lga qo'yilgan. Qo'shin yaxshi o'qitilgan, qurolni qo'llash mahoratiga ega bo'lgan lashkarlardan tashkil etilgan. Qo'shinga jangda qaxramonlik ko'rsatgan, o'z jasurligi va tajribasi bilan o'rmaq bo'lganlar lashkarboshi etib tayinlangan. Manbalar tahliliga ko'ra, Xorazmshohlar davrida davlat aholisini umummajburiy harbiy o'qitish tizimi joriy qilingan.

Temuriylar davrida harbiy qo'shin va tuzilmalarning tashkil etilishi tizimi tuzuklar asosida tartibga solinib intizomli qo'shin shakllantirilgan. Tuzuklarda harbiy nazariya, amaliy

harbiy san'at taktikasi va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi mujassamlanib bu o'z davrining doktrinasiga tenglashtirilgan. Amir Temur o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lishi bilan birga u harbiy salohiyatga ega jahonga mashhur sarkarda hamdir.

Amir Temur harbiy maktabi (harbiy ta'limi) uning qalamiga mansub "Temur tuzuklari"da nazariy jihatdan mujassamlashgan. Tuzuklarda quyidagilar qayd etilgan:

Lashkar qismlarni qayta tashkil etish;

Dushmanga hujum qilishda turli usullardan foydalanish;

Hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o'rganib chiqish;

Qo'shin tarkibi chorvadorlar, kosiblar, hunarmandlar, dehqonlar va o'troq aholidan shakllantirilgan;

Qo'shinlar tarkibida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham bo'lishi belgilangan;

Sharqda birinchilardan bo'lib qo'shinida o't irg'ituvchi qurol – ra'd andoz yaratilgan;

Tog'li hududlarda jang harakatlarini olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus qismlarni tashkil etilganligi;

Jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etilganligi;

Qo'shinda janglarda ayollarning ishtirok etishi hamda qahramonlik ko'rsatgan ayollarning bo'lishi ko'rsatilgan.

Amir Temur qo'shinida harbiy ta'lim tizimli ravishda tashkil etilib unda, mashhur ulamolar, sayyidlar, xojalar, shayxlar, imomlar, qozilar, mirshablar, turli ilmlardan dars beruvchi mudarrislar, muhaddis, hofizi Qur'on kabi mutaxassislar faoliyat olib borgan. Ushbu lavozimlar har bir askar bo'linma va qismida mavjud bo'lib, unda nihoyatda bilimdon, tajribali so'z ustasi – notiq, bag'oyat xushsusdan, shirinso'z, serlatofat so'zlari bilan armiyani o'ziga jalb etuvchi mafkura namoyandalari faoliyat yuritgan. Ular olib borgan targ'ibot ishlari islom e'tiqodi, tasavvuf ruhiyati va Amir Temur davlatchilik faolitini uyg'unlashtirib, jangchilarning e'tiqodini Sohbiqiron g'oyalari muvofiqlashtirilishiga xizmat qilgan. Amir Temur sipohni tuzishda, asosan o'nlik, yuzlik, minglik tartibiga amal qilgan. Lashkarlarning eng quyi bo'g'ini o'nlik bo'lsa, eng yuqori bo'g'iniga amirul umaro rahbarlik qilgan mingliklar (sipohlar) kirgan. Amir Temur qo'shinni tashkil etish, spohni tuzish va amirlar tanlashda bevosita ularning jangda ko'rsatgan mahoratini inobatga olgan. Bu borada tuzuklarda shunday keltiriladi: "Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko'rgan, jang-jadaldagi suvagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, bildirgi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasining roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlariga boshchi saylab, otini o'nboshi deb atasinlar"[21].

Buyuk sarkarda Z.M.Bobur davrida harbiy lavozimlar, qo'shinni tashkil etish tartibi, uning harbiy taktikasi va jangda qo'llash usullari qayta isloh etilgan. Ushbu harbiy siyosatni amalga oshirishda o'z mag'lubiyati va dushmanlarning harbiy uchtunligi jihatlarini chuqur o'rganilib, o'ziga xos tarzda o'zlashtirilgan. Xususan, shayboniylardan urushning "to'lg'ama" usulini, mo'g'ullardan pistirma qo'yishni, afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni, eroniylardan artilleriya sir - sinoatlarini, turklardan ko'chma suvoriylar qo'shini (kavaleriya)ni unumli ishlatishni o'rgangan. Bobur ustozlari Ali va Mustafalar yordamida kuchli artilleriya qo'shinini tuzgan. Ingliz tarixchisi Rashbruk Uilyamsning ta'kidlashicha, "Boburning Xindistondagi tantanasiga asosiy sabab bo'lgan yagona moddiy omil baquvvat artilleriya bo'lgan edi"[22].

Boburiy sarbozlar asosan uch toifaga bo'lingan. Har bir sarkardaga alohida mavqe (unvon) berilgan. Hatto bosib olingan mamlakatlar (vassal)ning harbiy boshliqlariga ham unvon berilgan. Har bir sarkarda o'z qo'shiniga ega bo'lib,

uning saflarini yangilash, harbiy mashqlar o'tkazish, mustahkam intizom o'rnatish, sarbozlar uchun qurol-aslaha, kiyim-bosh va oziq-ovqat tayyorlash ishlari ham uning nazoratida bo'lgan. Mansabdorlar ko'pincha o'z toifasidagi navkarlarni tayyorlash bilan shug'ullanganlar.

Ahadi navkarlari – podshohga qarashli navkarlar bo'lib, ularga devon yoki baxshi rahbarlik qilgan. Ular podshoh nomidan harbiy xizmatga olinar, harbiy mashqlar bilan shug'ullantirililar va mustahkam intizomni ushlab turardilar.

Ushbu tahlillar bizga harbiy amaliyotda o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan Bobur harbiy maktabi shakllangan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Buxoro xonligi (1533-1747) qo'shinlari asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'q-yoy, uzun nayza, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzan), changak kabi hujum qurollariga ega bo'lgan.

Buxoro amirligining harbiy qudrati amir Nasrullo hukmronligi davrida (1826-1860) o'zining eng yuqori nuqtasiga yetgan. Ushbu davrda Buxoroda muntazam qo'shin armiya – sarbozlar (sipoh) qo'shini tashkil etilgan bo'lib, ularning soni 40 mingga yaqin bo'lgan. Qo'shinlar otliq va piyoda jangchilardan iborat bo'lib, ularning qurollarini asosan qilich, nayza va o'q-yoy tashkil etgan[24].

Xiva xonligida XIX asrga kelib quroli kuchlar markazlashgan davlat apparatining bir tarkibiy qismiga aylangan. 1850-yilda Xivada muntazam qo'shin tashkil etilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Xiva xonligi qo'shini 13 ming otliq, 8 mingga yaqin to'pchi va piyoda askarlar iborat bo'lib, o'zbeklar, turkmanlar va qoraqalpoqlardan tashkil topgan. Xonlikning qo'shini asosan otliqlardan iborat bo'lib, unga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan. Xon saroyida yaxshi qurollangan 1000 kishi xizmat qilgan, yirik shahar va qal'alarda harbiy qismlar, chegara hududlarida chegara qo'shinlari tashkil etilgan va chegara qismi "qorovul begi" tomonidan boshqarilgan. Qo'shinni moddiy ta'minlash maqsadida navkarlarga xizmat joyidan yersuv ajratib berilgan. Davoniyning fikricha, askarlar eng shijoatli kishilardir, chunki ular davlat chegarasi va qal'alarini qo'riqlaydilar. Shuning uchun ular davlatning eng hurmatli kishilari hisoblanadilar. Davlat boshlig'i ularga doim moddiy yordam ko'rsatib, har bir askarni e'zozlashi lozim[25].

Xulosa sifatida keltirish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Xiva xonligida harbiy qismlar, chegara qo'shinlari tashkil etilgan va qo'shin turlari vazifalari aniq taqsimlangan. shuningdek qo'shin ta'minoti masalalari alohida e'tibor berilgan.

Qo'qon xonligida qo'shin tarkibiy jihatdan bo'linib aniq tuzilmaviy ko'rinishda, ya'ni qo'shin otliqlar – sipohlar, artilleriya – to'pchilar, piyoda – sarbozlarga, maxsus gvardiya – galabotirlar va merganlar bo'linmalari shaklida tashkil etilgan.

Bundan tashqari, Qo'qon xonligida harbiy lavozimlar joriy etilib, uch toifaga – oliy, o'rta, quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlarga bo'lingan. Ushbu mansab va unvonlarning berilish tartibi belgilangan va xon farmoni asosida tartibga solingan [24].

Xulosa. Harbiy ta'lim tizimi shakllanishining dastlabki bosqichini tahlil qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- Bir-biridan ajralib turgan harbiy ta'lim muassasalarining mavjudligi;
- Yagona o'quv dasturi hamda mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarining yo'qligi;
- Harbiy ta'limning sinfiy xarakterga egaligi;
- Ijtimoiy qatlamlarning huquqlar bo'yicha ajratilganligi;
- Harbiy ta'limning tizimli xususiyatga ega emasligi: yagona maqsad, boshqaruv, barqarorlik.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси таълим тўғрисидаги қонуни 23.09.2020-й. N ЎРҚ-637.
2. Наполеон. Правила, мысли и мнения о военном искусстве, военной истории и военном деле. С. 201–202. 3. Военная энциклопедия /Под ред. Новицкого В.Ф. Т. I. — С. 201–202.
3. Медем Н.В. Очерк военно-учебных заведений во Франции. СПб., 1869.С. 74–76.
4. Поппен Г.В. Италия. Вооруженные силы. Часть II. СПб.: Воен. тип.,1886.С.15-18.
5. Кривенко В.С. Общие и военные школы. С. 67. 7. Макшеев Ф.А. Генеральный штаб. Сравнительный очерк современного устройства его в армиях: русской, германской, французской и австрийской. СПб.: Березовский, 1899.— С. 93–97.
6. Военная энциклопедия /Под ред. Новицкого В.Ф. — Т. I. — С. 201.
7. Мюллер Г. Моральное воспитание войск в Германии, России и Японии. Сравнительный этюд на основании опыта русско-японской войны. М., 1908. 79 С.
8. Описание Японского морского училища. СПб.:Морской ген.штаб,1908.С. 15-17.
9. Вооруженные силы Северо-Американских Штатов и других государств Америки (по данным к1 января 1910 года) / Под ред. Одинцова С.И., СПб.,1910.96 С.
10. Негматов Б. Ўзбекистонда ҳарбий ишлар тарихидан лавҳалар. Тошкент2010Б.4.
11. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М., 1948. – С.221. 14. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1. М.: ИВЛ, 1963. С. 238.
12. Бичурин Н.Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 2. – М. – Л., 1950. –С. 189.
13. Педагогика тарихи. Константинов Н.А. Т.: 1976 й. “Педагог” нашриёти. 42-б.
14. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: “Адолат” 1997. – Б.107-108.
15. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Юлдузча, 1990. –Б. 9.
16. Низомулмулк. Сиёсатнома.- Тошкент: Адолат, 1997. 20. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). –М.:Наука,1986. –С.89. 21. Темур тузуклари. – Тошкент: Шарқ, 2005. Б.27-83.
17. Бобур З.М. Бобурнома, - Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б.81.